



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

18-aprel

payshanba

№ 16 (4658)

# Postda На посты

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqsa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

SINCHKOVLIK

VA ANIQ DALILLAR SAMARASI



Qoraqalpog'iston  
Respublikasi IIV  
Ekspert-kriminalistika  
markazi va uning joylardagi  
guruhlari xodimlari tergov va  
tezkor qidiruv tadbirlarida faol  
ishtirok etib kelishmoqda.

– Jinoyatlarni fosh etish  
samaradorligini oshirish maqsadida  
tergov-tezkor bo'linmalari va hududiy  
ichki ishlar organlari xodimlari bilan  
muntazam ravishda o'quv tadbirlari  
o'tkazish yo'liga qo'yilgan, – deydi  
Ekspert-kriminalistika markazi boshlig'i,  
podpolkovnik Mubarek Nizamatdinov. –  
Shuningdek, IIV Qoraqalpoq akademik  
litseyi o'quvchilari uchun ta'lim  
muassasasida EKMda mavjud bo'lgan  
texnikalar, «Ford-Tranzit» avtomobili  
bazasidagi ko'chma laboratoriya  
imkoniyatlari namoyish etib kelinmoqda.  
Markaz xodimlari tomonidan  
jinoyatlarni ochishda shahar va tuman  
IIBda yangidan profilaktik hisobga  
olingan, yashash manzillaridan uzoq  
muddatga chiqib ketayotgan va qaytib  
kelgan shaxslarning qo'l-barmoq izlarini  
tizim bazasiga kiritib borish ishlari  
muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

O'z muxbirimiz.  
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

 ФАРЗАНДИМНИНГ ЮТУГИ

 Сирдарё вилояти


**Ҳеч кўз олдимдан кетмайди. 2019 йилнинг январь ойи эди. Кечга яқин ўғлим эшикдан кириб келди. Эгнида ички ишлар органлари ходими либоси. Жилмайиб турибди. Қалбимни чексиз ҳаяжон қамраб олди, кўзим ёшланди. Ахир бу кунларни қанча кутгандим...**

Ўғлим Мавлонжон Хўрзов 29 ёшда. Мактаб ва колледжа яхши ўқиганидан кўп мақтov эшитардим. Улғайгани сари орзулари ҳам улғайди. Ички ишлар органлари ходими бўлишни мақсад

килди. Ҳарбий хизматга бориб келгач, Сирдарё вилояти ИИБ ЙХХБ ЙПХ 2-отряд инспектори этиб тайинланди.

Бир куни хизматдан кеч қайтди. Маълум бўлишича, ўша куни йўлда аянчли автоҳалокат содир бўлган. «Nexia» билан «MAN» юк автомашинаси тўқнашган. Енгил машинада уч киши: ҳайдовчи, она ва бола бўлган. Ўғлим воқеа жойига биринчилар қатори этиб бориб, оғир тан жароҳати олган она ва болани зудлик билан касалхонага етказиб уларнинг ҳаётини сақлаб қолган.

Ўғлимнинг қилган ишидан фахрландим. Инсонлар ҳаётининг хавфсизлиги учун жавобгарлиги, зарур бўлса, улар учун кўмакка тайёр эканлигидан кўксим тоғдек юксалди.

Яқинда хушҳабар келди. Фарзандим ИИВ томонидан ўтказилган «Намунали ҳуқуқ-тартибот маскани» танловида «Энг фаол йўл-патруль хизмати инспектори» деб топилибди. Шу куни оиласиз учун байрам бўлди. Шунинг ўзи она сифатида менга гурур бағишлайди.

**Үроҳол ЭРГАШЕВА.**  
Мирзаобод тумани.


 Жиззах вилояти

**ЎҒЛИМ ШОҲЖАҲОН ЭШНАЗАРОВ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ХОДИМИ БЎЛИШ НИЯТИ БОРЛИГИНИ АЙТГАНИДА КЎНГЛИМ ҒУРУРГА ТЎЛГАН. ҚУВОНЧИМГА УНИНГ ШАРАФЛИ ВА МАШАҚҶАТЛИ КАСБНИНГ БОШИНИ ТУТА ОЛИШИГА ИШОНГАНИМ САБАБ БЎЛГАНДИР. ЧУНКИ ЎРТА УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИДА «АЪЛО» БАҲОЛАР БИЛАН ЎҚИДИ, ИРОДАСИ ВА ЖИСМИНИ МУНТАЗАМ ЧИНКИТИРЯПТИ. ҚОЛАВЕРСА, ЎТГАН ЙИЛИ ИИВ ЖИЗЗАХ АКАДЕМИК ЛИЦЕЙИГА ЎҚИШГА КИРИШНИНГ УДДАСИДАН ЧИҚДИ.**

У спортнинг ўзбек жанг санъати турида қатор ютуқларга эришмоқда. Жумладан, 2016 йилдан бўён вилоят миқёсида ўтказилган 30 дан ортиқ мусобақада олтин ва кумуш медаллар билан тақдирланди, 5 маротаба республика чемпиони бўлди. 2017 йилда эса пойтахтимизда ташкил этилган халқаро мусобақада ҳамда 2023 йилнинг апрелида Қозоғистонда ўюштирилган Осиё чемпионатида 2, ўша йили декабрь ойида Қозоғистонда бўлиб ўтган Осиё кубоги баҳсларида 1-ўринни эгаллади.

Эришган муваффақиятлари боис 2023 йилда вилоят ёшлар сиёсати ва спорт бошқармаси

томонидан «Йилнинг энг яхши спортчиси» сифатида рафбатлантирилди. Жорий йил ҳам ўғлим учун омадли келди. Март ойида Қозоғистонда Жаҳон кубоги учун ўтказилган мусобақада 2-ўринни эгаллади. Айни вақтда I даражали қора белбог соҳиби, спорт усталигига номзод, вилоят терма жамоаси аъзоси.

2025 йил фарзандим лицейни тамомомлади, аминманки, ИИВ Академияси курсантлари сафидан жой олади. Ўғлим изимдан бораётганидан, халқимизга садоқат билан хизмат қилишга бел боғлаганидан фахрланаман.

**Шамсиддин ШАКАРОВ,**  
**вилоят ИИВ ЖХХ**  
**ЖТСБ мұхым топшириклар**  
**бүйіча инспектори,**  
**подполковник.**

Тадқиқотларга қараганда, «Тенгдош – тенгдошга» тамойили энг яхши самара берадиган усууллардан бири экан. Бу қайсирид ўқувчи бирон бир мавзуда тенгдоши билан суҳбатлашса, фикрлашса, натижадорлик юқори бўлади, дегани. Мирфайзбек ана шу тамойилга таянган ҳолда, мактаб ўқувчилари бўлган тенгдошлири билан бир қанча лойиҳаларни амалга ошириди.

Ўтган йилнинг декабрь ойида республикамизнинг барча худудларида «Раҳбар ва ёшлар» учрашувлари ўтказилди. Қашқадарё вилоятида бўлиб ўтган учрашувлардан бирида Мирфайзбек вилоят ҳокими Муротжон Азимовга энг намунали ва иқтидорли мактаб ўқувчилари учун «Вилоят ҳокими стипендияси»ни жорий этиш кўнижмаларини шакллантиришда мухим роль ўйнади.

Эътиборлиси, бу таклиф қўллаб-қувватланиб, жорий йилнинг 13 январида «Вилоятдаги энг намунали ва энг иқтидорли ўқувчилар «Вилоят ҳокими стипендияси»ни жорий этиш тўғрисида»ги қарор қабул қилинди. Бу хабардан ўғлим ва унинг тенгқурлари, бутун воҳа ўқувчилари жуда хурсанд бўлди.

Мамлакатимизда мавжуд кенг имкониятлардан оқилона фойдаланаётган ёшлар барча соҳаларда катта ютуқларни кўлга киритмоқда. Ана шундай интилевчан ёшлар орасида фарзандим Мирфайзбек ҳам борлигидан фахрланаман!

**Сирожиддин РАҲИМОВ,**  
**подполковник.**

 Қашқадарё вилояти

**Ота-она учун фарзандининг камолини кўришдан ортиқ баҳт бўлмаса керак. Айни пайтда Қарши шаҳридаги 4-умумтаълим мактабининг 9-синфида таҳсил олаётган ўғлим Мирфайзбек Абдуллаев аъло баҳоларга ўқиб, фан олимпиадаларида ғолибликни қўлга киритди. У ҳозирда Ёшлар иттифоқи вилоят кенгашида сардор.**





## UCH AVLODNI BIRLASHTIRGAN TADBIR

Ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan «Uch avlod uchrashuvi»da yosh, o'rtा va keksa avlod o'rtaidagi ko'priki mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar izchillik bilan davom etmoqda. Xususan, IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentida «Yong'inning oldini olish bo'limi tashkil etilganligining 30 yilligi» va «Uch avlod uchrashuvi» ma'naviy-ma'rifiy tadbiri bo'lib o'tdi.

Yong'inning oldini olish bo'limi 1994-yilning aprel oyida o'sha paytdagi IIVning transport miliitsiyasi tarkibida 25 nafar xodim bilan ish boshlagan. Bo'lim oldiga temiryo'l vokzallarida, yo'lovchi, yuk tashuvchi poyezdlar vagonlari hamda neft-gaz mahsulotlarini yetkazib beruvchi sisternalarda katta yong'in va talafotlarning oldini olish ishlarni bajarish vazifasi qo'yilgan. «Uch avlod



uchrashuvi»ga tashif buyurgan faxriylarning ko'pchiligi aynan mana shu yo'nalishda uzoq yillar samarali xizmat qilib, pen-siyaga chiqqan fidoyilar bo'ldi.

— Men sohaga endi kirib kelayotgan yoshlarni ustozlar o'gitiga amal qilib, bilimlarni chuqur o'zlashtirib, ustoz-fax-

riylarimizga munosib bo'lishga, qolaversa, bugungi kunda oliy maqsadlarimizdan biri bo'lgan «Yangi O'zbekistonda – Uchinchi renessans» davriga poydevor qo'yishda faol ishtirot etishga chorlayman! — dedi tadbirni ochib bergen Ichki ishlar vaziri o'rinosari, general-major Bahodir Mirzarahimov.

Katta hayotiy tajribaga ega insonlar sifatida yosh avlodni vatanparvarlik, kasbiga sad-qat, qonunchilik va xizmat intizomiga qat'iy amal qilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga munosib hissa qo'shib kelayotgan faxriylar chin ma'noda ustoz degan nomga munosibdir.

Tadbir yakunida tizimda uzoq yillar davomida mehnat qilgan faxriylarga IIV hamda FVV rahbariyatining tashakkurnomalari va qimmatbaho esdalik sovg'alarini topshirildi.

**Abror POYONOV,  
o'z muxbirimiz.**



## NAVOIY VILOYATI

### «BOG'ISHAMOL» YOSHLARI UCHUN

Karmana tumani 3-sektori hudo-didagi «Bog'ishamol» mahallasida noan'anaviy yoshlarni yig'ini tashkil etildi.

Mahallaning yosh polvonlari kurash maydonida kuch sinashgan tadbirda belbog'i mahkam, bilagi zo'r, mohoratli polvonlar g'olib bo'lib, mutasad-

dilar tomonidan munosib taqdirlandi. Ayniqsa, harbiy orkestr hamda milliy cholg'u ansambl ijrosidagi musiqi taronalar ishtirokchilar va tomoshabin-larga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Mahallada joylashgan 30-maktabning sport majmuasida esa voleybol musobaqasi tashkil etildi. Yosh



voleybolchilar o'zlarining chaqqonligi va tezkorligini o'zin davomida namoyish etishdi. Musobaqa yakunida g'oliblarga qimmatbaho sovg'alarini topshirildi.

Tadbir so'z ustalarining hajviy hangomalari va dorbozlarning


tomoshalari «Bog'ishamol» mahalla-sining yosh-u qarisiga birdek manzur bo'ldi. Qo'chqor urishtirish esa milliy o'ynilarimizga yoshlarning qiziqishini kuchaytirgani aniq.

**O'z muxbirimiz.**

## MUXBIRLARIMIZ XABAR QILADI

### SIMGA AYLANGAN TARMOQ

Forish tumanining «Oqtom» mahallasida yashovchi X.A. ichki ishlar organlariga murojaat qilib, u rahbarlik qiladigan fermer xo'jaligi dala maydonidan 2 ming metr



elektr tarmog'i o'g'irlanganligini bildirgan. Olib borilgan tezkor qidiruv tadbirlari natijasida ushu jinoyat jabrlanuvchining mahalladoshi U.I. tomonidan sodir etilgani aniqlandi. Gumanlanuvchidan 1700 metr alyuminiy hamda 40 metr mis sim hujjatlashtirib olingan.

### SAYYOH TELEFONINI YO'QOTDI...

Surxondaryo viloyatiga Fransiyadan kelgan sayyoh Melody Naidne Slaude Termiz arxeologiya muzeiyiga kelishda uyali aloqa vositasini ehtiyyotsizlik bilan yo'lovchi taksida tushirib qoldiradi. Mehmon muzeiy hududida xizmat olib borayotgan viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlariga murojaat qilib, holatni tushuntiradi.



Zudlik bilan olib borilgan surishtiruv chog'ida situatsion markazdagi kuzatuv kameralari orqali taksi avtomashinasi aniqlanib, sayyohning telefon apparati topib berildi. Fransiyalik turist ko'rsatilgan tezkor amaliy yordamdan behad mammun bo'lib, boshqarma xodimlariga o'z minnatdorligini bildirdi.



Молодежный научный форум

# УСПЕХ КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ



12 апреля 2024 г.

## Церемония награждения по итогам ДНЕЙ МОЛОДЕЖНОЙ НАУКИ



**В городе Барнауле (Российская Федерация) 10–12 апреля состоялся молодежный научный форум «Дни молодежной науки». В нем участвовали курсанты и слушатели высших учебных заведений при министерствах внутренних дел России, Беларуси, Казахстана, Кыргызстана и Узбекистана.**

На этом форуме успешно выступила команда «Ёш юристлар» («Молодые юристы») Академии МВД Республики Узбекистан. По итогам конкурса представители нашей страны

завоевали четыре I места (одно в общекомандном, три в индивидуальном зачетах), два II места (оба в личном зачете), пять III мест (одно общекомандное и четыре в индивиду-

альном зачете). Победители и призеры награждены дипломами и памятными подарками.

Благодаря успешному выступлению команда также удостоилась куб-

ка «За международное сотрудничество». Руководил делегацией начальник кафедры криминалистических экспертиз Академии МВД подполковник Анвар Хусанов.

В составе команды за призовые места боролись курсанты Академии МВД М. Нуманов, Ж. Тохиржонов, А. Хасанов, У. Бахрамова, С. Сыраева.

Соб. корр.

### ■ Джизакская область

**Водитель 2-го отряда батальона ППС УООП СОБ УВД Джизакской области рядовой Миржалол Бердимуродов вместе с сослуживцами патрулировал территорию махалли Дустлик. Осмотривая один из домов, он заметил, как временно проживавший здесь Б. Э. с беспокойством кинул взор на груду металлического кирпича, громоздившегося в углу двора. Рядовой подошел к наваленной куче, и обнаружил в заржавевшей трубе охотничье ружье «ТОЗ» 5,6 калибра, завернутое в кусок материи.**

Б. Э. признался, что незаконно хранит оружие, доставшееся ему в наследство от отца. По факту были приняты меры в отношении данного гражданина, который, к слову говоря, состоял на постоян-

## ОБРАЗЦОВЫЙ СОТРУДНИК



ном учете. Это лишь один из эпизодов деятельности рядового Бердимуродова. За минувший период года он совместно с кол-

легами из других служб раскрыл 14 преступлений.

Кроме того, добился размещения 9 лиц без определенного

места жительства в центр реабилитации, а также определил 8 несовершеннолетних, оставленных без присмотра, в центр оказания социально-правовой помощи. Оформил соответствующие протоколы на пятерых граждан, носивших с собой холодное оружие.

Словом, рядовой Миржалол Бердимуродов ответственно исполняет возложенные обязанности, обеспечивает исправное состояние вверенного транспортного средства, являясь примером для остальных. Помогает молодым коллегам набираться опыта и мастерства, за что заслужил уважение сослуживцев.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**  
соб. корр.

**На снимке:** (слева) водитель 2-го отряда батальона ППС УООП СОБ УВД Джизакской области рядовой Миржалол Бердимуродов с коллегой рядовым Фарходом Жабборовым.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda\_uz

ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

# МАГАДАН ИЗТИРОБЛАРИ

**Косон туманидаги Гувалак қишлоғида яшовчи оддий дәхқон Норбўта ота ва Шодмон ая хонадонида дунёга келган тўнғич фарзандга яхши ният ила Хушвақт дея исм қўйишиди.**

Ёш Хушвақтинг ўқувчилик йиллари Иккинчи жаҳон урушига тўғри келди. Қийинчиликларга қарамай, ота-онаси унинг ўқишига жиддий эътибор қаратди. Тумандаги 35-мактабнинг 7-синфини тугатган

кил лавозимида айни шу бўлимда хизмат қилиб, кўплаб жиноятларни фош этишга катта ҳисса қўшиди. Сўнгра кадрлар тақчиллиги боис Қарши шаҳар ИИБда терговчи, катта терговчи, тергов бўлинма-



Хушвақт жамоа хўжалигида ишлаш билан бирга, кечки мактабда таҳсил олиб, таянч маълумотга эга бўлди.

Билим олишга, ўқишига бўлган иштиёқ 1952 йилда уни Тошкент юридик институтига етаклади. Шу иили имтиҳонлардан мувваффакиятли ўтиб, олийгоҳ талабаси бўлди. Институтни тугатгач, уни йўлланма билан ички ишлар органига ишга жўнатишиди.

Илк хизмат фаолиятини 1956 йилда Қарши шаҳар ИИБ тезкор вакили лавозимида бошлаган ёш ходим олий ўкув юртида олган билимини амалиётда кўллаб, тажриба ва малакасини оширди. Ўз ишига бўлган талабчанлик ва қизиқиши сизган раҳбарият Хушвақт Норбўтаевни 1957 йилда собиқ иттифоқ ИИВ Олий мактабининг Тбилиси филиалига ўқишига жўнатади.

Ўқишидан билим ва малакасини ошириб қайтган Хушвақт Норбўтаев вилоят ИИБ ЖҚБ давлат мулкини талон-торож қилишга қарши курашиш бўлими (ОБХСС) тезкор вакили лавозимида хизматни давом эттириди. Шу бўлимда катта тезкор вакил, вилоят ИИБ Тергов бўлими терговчиси, катта терговчиси каби масъулиятли вазифалардаги хизмат фаолияти ҳам самарали кечди.

Ўтган асрнинг 60-йилларида вилоят марказида криминоген вазият оғирлашган, жиноятчилик кўпайган эди. Шуни ҳисобга олган раҳбарият 1960 йили тажрибали ходим Хушвақт Норбўтаевни Қарши шаҳар ИИБ Жиноят қидибув бўлими тезкор вакили этиб тайинлайди. У 1969 йилга қадар катта тезкор ва-

си бошлиғи каби лавозимларда ишлаб, ёшларга касб сирларини ўргатишида жонбозлик кўрсатди.

Касбий маҳорат ва тажрибада ҳамкасларига ўрнак Хушвақт Норбўтаевга янада катта ишонч билдирилади – у вилоят ИИБ Тергов бўлими бошлиғи лавозимига тайинланади. Кейинчалик Қамаши тумани ҳамда Қарши шаҳар ички ишлар бўлимларида бошлиқ лавозимларида хизмат қилиб, криминоген вазиятни яхшилаш борасида ҳамкасларига ибрат бўлди.

Х. Норбўтаев 1975–1979 йилларда вилоят ИИБ бошлиғининг биринчи ўринbosари лавозимида самарали фаолият юритди. 1979 йили вилоят ИИБ бошлиғи этиб тайинлангач, мазкур лавозимда ишлаган даврда, яъни 1979–1984 йилларда қонунбузарликларга барҳам бериш, фуқаролар осойишталигини таъминлаш борасида ижобий натижалар қўлга киритилди. Янада эътиборлиси, айни шу даврда Чироқчи, Китоб, Касби, Миришкор, Қарши туманлари ҳамда Қарши шаҳар ИИБлари учун янги бинолар қурилди. Шахсий таркиби хизмат автомашиналари, алоқа восита-лари билан таъминлаш ишларига шахсан ўзи ташаббускор ва бошкosh бўлди.

Хушвақт Норбўтаев вилоят ИИБга раҳбар этиб тайинланганида мен бошқарма навбатчилик қисми бошлиғи лавозимида ишлардим, – дейди истеъфодаги подполковник Худоёр Ботиров. – Унинг жиноятларнинг олдини олиш ва содир этилганларини фош этиш борасида касбий билими, малакаси

жуда кучли эди. Шу билан бирга, ходимлар ўртасида хизмат интизоми ва қонунчиликни мустаҳкамлаш, ёш ходимларга касб сирларини ўргатиш, касбга садоқат туйғусини шакллантиришда ўзига хос тажриба мактабини яратганди.

1982 йил 3 ноябрь куни Хушвақт Норбўтаевга «милиция генерал-майори» маҳсус унвони берилади. Қолаверса, хизмат йиллари давомида II, III даражали «Бенуқсон хизматлари учун» «Аъло хизматлари учун», «Ички ишлар вазирлигида хизмат кўрсатган ходим» кўкрак нишонлари билан тақдирланади.

**Собиқ иттифоқ прокуратурасининг 1983–1989 йилларда Ўзбекистонда тергов ўтказган терговчилари Т. Гдлян ва В. Иванов томонидан «Пахта иши», «Ўзбек иши» деб номланган үйдирмалар асосида олиб борилган қатағонлар, афсуски, генерал-майор Хушвақт Норбўтаевни ҳам четлаб ўтмади. У собиқ иттифоқ ИИВ буйруғи билан 1984 йил 3 октябрда лавозимидан озод қилинди ва терговга тортилди. Кейинги йилнинг 9 август куни эса қамоқقا олинди.**

Собиқ иттифоқ Олий Суди ҳарбий коллегиясининг 1988 йил 30 декабрдаги ҳукми билан Хушвақт Норбўтаев «милиция генерал-майори» маҳсус унвонидан маҳрум қилиниб, ўша пайтдаги Ички ишлар вазирига пора бериш айби қўйилиб, 10 йилга озодликдан маҳрум этиш, мол-мulkини давлат фойдасига мусодара қилиш, жазони кучайтирилган колонияда ўташ бўйича жиной жавобгарликка тортилди.

– Отам қамоқقا олинганида 11 ёшли бола эдим, – дейди унинг ўғли Дилшод Норбўтаев. – Ўша машъум кунлар кечагидек ёдимда: гдлянчилар бизга ҳам зуғум ўтказишиди, онам ва отамнинг бошқа қариндошлари, яқинлари тазиикга олинди. Улар ҳатто мени ҳам икк

марта терговга чақириб, «Отангнинг яширган пуллари қани, тилла буюмлари қаерда?» деб сўроқ қилишиди. Энди, раҳматли падари бузрукворимга қилинган қийноқ ва зуғумларни, унинг Магаданда ўтган изтиробли, оғир йилларини тасаввур қиласеринг...

**Х. Норбўтаев жазони Россиянинг Магадан шаҳридаги жазони ижро этиш муассасасида ўтаб, 1992 йил 8 июнда озодликка чиқади.**

Истиқлол шарофати туфайли адолат қарор топди. Ўзбекистон Олий Судининг 1994 йил 9 сентябрдаги ҳукми билан Хушвақт Норбўтаевга қўйилган айлов бекор қилиниб, оқланди.

Хушвақт Норбўтаев озодликка чиққандан сўнг, 1995 йилда «Адолат» адвокатлик бюросини очиб, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш борасида самарали хизмат қилди. У адолатсизлик билан асло муроса қила олмас, қолаверса, табиатан меҳрибон ва оққўнгил инсон эди. Шу боис ҳам, ким унга бирор ёрдам сўраб мурожаат қилса, маслаҳатини, кўмагини аямасди.

Минг таассуфки, қатағон зулми асоратлари, айниқса, Магадан изтироблари моҳир раҳбар, малакали ҳуқуқшунос X. Норбўтаевнинг саломатлигига ўз таъсирини ўтказмай қолмади. Олган руҳий ва жисмоний тазииклар туфайли 2008 йилда оламдан ўтди.

Хушвақт Норбўтаев турмуш ўртоғи Ҳикмат ая Баражабова билан иккى фарзанд – бир ўғил, бир қизни тарбиялаб, комил инсонлар этиб вояга етказишиди. Бутун умрини, бор куч ва салоҳиятини халқ осойишталигига бағишилаган фидойи инсоннинг хайрли ишларини бугун юртимиз равнақи йўлида меҳнат қилаётган унинг фарзандлари, набиралари давом эттироқмода.

**Содик РАҲИМОВ, ўз мухбиришим.**  
Кашқадарё вилояти.



■ Республика Каракалпакстан



## Пример во всем

**На выбор будущей профессии детей большое влияние оказывает пример взрослых. Род деятельности родителей формирует представление о той или иной работе, исподволь подогревая интерес к конкретной сфере.**

В этом отношении у меня был наглядный пример. Отец – подполковник Бахтияр Торемуратов работал в структурах Министерства внутренних дел. Дядя, подполковник в отставке Ибраим Торемуратов, также посвятил жизнь служению органам внутренних дел. По его стопам шел и второй дядя Парамат. Поэтому, когда школьные наставники дали задание написать сочинение о будущей профессии, выразил желание продолжить эту традицию.

Отец во всем был и остается для меня примером. Он является командиром отряда ППС 3-го территориального регионального координационного центра.

Мне не понаслышке знакомы сложности этой профессии. По долгу службы отец часто проводит праздники и торжественные даты вне семьи, обеспечивая безопасность людей.

Когда я выразил отцу свое желание пойти по его стопам, он поддержал мой выбор. В настоящее время являюсь учащимся 102-й группы 1-го курса Каракалпакского академического лицея МВД Республики Узбекистан.

В будущем намерен поступить в Академию МВД. Для этого усиленно занимаюсь историей и английским языком. Знаю, что быть сотрудником органов внутренних дел – занятие не из легких. Пример отца вдохновляет посвятить себя служению правопорядку и обеспечению справедливости.

Данияр ГЕНЖЕМУРАТОВ.



Ветераны – наша гордость

## ВТОРОЕ ПРИЗВАНИЕ МАЙОРА

**Предпринимательство – особая сфера, требующая определенных навыков и умений, направленная на получение прибыли за счет экономической деятельности. Хотя это под силу не каждому, благодаря создаваемым в стране благоприятным условиям, в бизнес вовлекаются широкие слои населения.**

Майор в отставке Авазбек Солиев много лет проработал в органах внутренних дел, заслужив уважение коллег и руководства. Будучи на заслуженном отдыхе решил организовать собственное дело. Учредил ООО «Ботиров Асадбек FAMILY», специализирующуюся в основном в сфере строительства. С 2015 года в регионе

фирма сдала в эксплуатацию более 30 объектов социальной сферы. В том числе школы, дошкольные образовательные организации, семейные поликлиники, здания махаллинских сходов граждан. В махалле Талисафед Шафирканского района, откуда он родом, организовал дехканский и скотный рынок «Чорраст».



На снимке: майор в отставке Аваз Солиев вместе с супругой и дочерью.

Кроме того, занимается земледелием, создав фермерское хозяйство, где обеспечил работой 15 человек. На 60 гектарах коллектив выращивает хлопчатник, пшеницу, заготавливает коконы. В минувшем году перевыполнил плановые задания, собрав 79 тонн пшеницы и 160 тонн хлопка. Сейчас в разгаре весенне-полевые работы.

А. Солиев во время пандемии коронавируса, которая унесла жизнь его матери, оказывал всесмерную помощь больным и нуждающимся. Взял шефство над 30 подобными семьями, обеспечивая их продуктами повседневного спроса. На поприще предпринимательства ему помогает супруга, Нигора Сайдова.

– Однажды муж предложил мне работать по специальному

ности, пообещав построить на бывшем пустыре детский сад, – говорит она. – Так появилась дошкольная образовательная организация, действующая на основе государственно-частного партнерства, где воспитываются 250 малышей, большинство из малообеспеченных семей. В коллективе трудятся двадцать человек. Дочь Ноизимахон, окончив Бухарский государственный университет, также работает с нами. Сын, Асадбек, там же учится на факультете экономики.

Словом, Авазбек Солиев путем предпринимательства содействует повышению собственного благосостояния и благосостояния других.

**Мирзокул АХАДОВ,  
соб. корр.**

Бухарская область.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdaramsiy](https://t.me/postdaramsiy)



[www.facebook.com/postdaуз](https://www.facebook.com/postdaуз)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

## DILLARDA VATAN MADHI!

## NAVOIY VILOYATI

Ichki ishlar organlariga biriktirilgan yoshlar o'rta-sida «Dillarda Vatan madhi» shiori ostidagi qo'shiq va she'riyat tanloving Navoiy viloyat bosqichi o'tkazildi. Tanlovdan ko'zlangan maqsad yoshlar-ning madaniyat, san'at va boshqa ijodiy sohalar-dagi iqtidorlarini namoyon etishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishdan iboratdir.

Navoiy shahridagi 8-son davlat maktabi konsertlar zalida o'tkazilgan mazkur tadbirda iqtidorli yoshlar o'zlarini tanlagan yo'naliishlarda o'zaro bahslashdilar. Tanlov nizomiga ko'ra, yosh xolislik bilan baholanib borildi.

Ta'kidlash joizki, ilk bora o'tkazilayotgan mazkur tanloving shahar-tuman bosqichlarida she'riyat yo'naliishi bo'yicha 53 nafar, qo'shiqchilik yo'naliishi bo'yicha 36 nafar iqtidorli yoshlar qatnashishgan edi. G'oliblikni qo'lga kiritgan 22 nafar ijodkor yoshlar tanloving viloyat bosqichida she'riyat va qo'shiqchilik yo'naliishlari bo'yicha ishtirok etishdi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli yoshlar tanloving respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmalarni qo'lga kiritdi.

**Mahliyo MIRZAYEVA,**  
podpolkovnik.

ijodkorlarning chiqishlarini baholashda sahna madaniyatiga riosa qilinganligi, qo'shiq musiqasining originalligi, jonli ijro, she'rning badiiy obrazlarga boyligi, mazmundorligi, xalqchilli-gi, Vatanga muhabbat va istiqlolga sadoqat g'oya-lari bilan yo'g'rilganligiga hamda milliy qadriyatlar ulug'langanligiga e'tibor qaratildi. Yosh ijodkorlarning chiqishlari hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan

shi bo'yicha 36 nafar iqtidorli yoshlar qatnashishgan edi. G'oliblikni qo'lga kiritgan 22 nafar ijodkor yoshlar tanloving viloyat bosqichida she'riyat va qo'shiqchilik yo'naliishlari bo'yicha ishtirok etishdi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli yoshlar tanloving respublika bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmalarni qo'lga kiritdi.

## PROFILAKTIKA XIZMATI

## «YASHIL» DA QOLISH MAS'ULIYATI



## TADBIR

## MASHG'ULOT MAYDONCHASIDA – KICHKINTOYLAR

Xorazm viloyati IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish maqsadida bir qator targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishmoqda.

Urganch shahridagi 41-sonli davlat maktabgacha ta'lrim muassasasida «Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi» shiori ostida targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Mazkur tadbirda boshqarmaning mas'ul xodimlari ishtirok etib, bolalarda yo'l harakati qoidalari bo'yicha dastlabki tushunchalarni paydo qilish jarayonlari bilan tanishishdi.

- Ushbu mashg'ulot xonasi YHXB hamda viloyat Maktabgacha va mакtab ta'limi boshqarmasi hamkorligida tashkil etildi, - deydi viloyat IIB YHXB Axborot guruhi katta mutaxassis, kapitan Shavkat Bobojonov. - Mazkur xonaning yo'l belgilari va yo'l



bevosita amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish imkoniyati yaratadi.

Shu kuni yosh tarbiyalanuvchilar tomonidan tayyorlangan «Ehtiyotkor piyoda» mavzusida

hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Bolalar bilan bog'liq YTHning barvaqt oldini olishga qaratilgan bunday targ'ibot tadbirlar viloyatning barcha maktabga-



chiziqlari tushirilgan maxsus ko'rgazmali gilam bilan jihozlanishi, bu yerdagi yo'l belgilari, svetoforlar, turli rangdagi o'yinchoq avtomashinalar, velosipedlar kichkintoylarning

ochiq mashg'ulotda bolajonlar musiqiy ko'rinishdagi o'yinlar hamda she'r va qo'shiqlar ijro etishdi.

Tadbirda viloyat IIB boshlig'ining tashakkurnomasi

cha va maktab ta'limi muassasalarida davom etmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.  
Xorazm viloyati.

Olot tumani qo'shni Turkmaniston bilan chegaradosh.  
Buxoro viloyatidagi eng chekka hududlardan biri sanalgan tumandagi «O'zbekiston» mahallasida katta leytenant Sunnatilla Qo'chqorov profilaktika inspektori sifatida faoliyat olib boradi.

Mahallaning 2950 nafardan ortiq aholisi asosan savdo-sotiq, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. 2 ta mini futbol maydoni, qolaversa, yoshlar boshqa sport turlari bilan mashg'ul bo'lishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, mahallada 1 ta mакtab, 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatadi.

S. Qo'chqorov huquqbazarliklari barvaqt aniqlash, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini o'rganishga mas'ul sifatida aholining har bir murojaatini e'tiborsiz qoldirmaydi.

- Mahallamiz uch yildan beri «yashil» toifada. O'tgan yili og'ir turdag'i jinoyatlar sodir etilmadi. Joriy yilning dastlabki uch oyida ham ko'rsatkichlar yaxshi. Ya'ni, jinoyatchilikdan xoli hududmiz. Bu natijani qo'lidan boy bermaslik uchun mahalla mas'ullari bilan yakdillikda ish olib boryapmiz. Buyog'iga ham bo'shashmay, «yashil» toifada qolishimiz zarur. Bu bir tomonidan sharaf, shu bilan birga, mas'uliyat ham, - deydi katta leytenant Sunnatilla Qo'chqorov.

Darhaqiqat, sportda shunday naql bor: «Champion bo'lishi qiyin, uni saqlab qolish undan-da qiyin». Shu ma'noda, «yashil» toifani ushlab turish oson ish emas. Biz esa «yashil» hududlarimiz yanada ko'p bo'lishi va ular hech qachon «qizil»ga tushmasligi tarafdomiz.

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Buxoro viloyati.

IKKINCHI ISTE'DOD

# XIZMATGA SADOQAT, SAN'ATGA MEHR BILAN

Abror yoshligidan san'atkorlarning chiqishlarini ko'rib, ulardek bo'lismi orzu qildi. Shu bois qo'shiq aytish, sahnada turli rollar ijro etish ishtiyogi bolalikdan shakllandi. Maktabni tamomlagach, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga o'qishga kirdi. Oliy ta'lim muassasasining xalq ijodiyoti folklor-etnografiya jamoalariga rahbarlik qilish yo'naliishi bo'yicha tahsil oldi.

Lavhamiz qahramonining otasi iste'fodagi podpolkovnik Saidmurod Po'latov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini Sherobod tumani IIBda profilaktika inspektorligidan boshlagan. Keyinchalik tuman IIB boshlig'ining SHTBIX bo'yicha o'rnbosari, bir necha yil IIV markaziy apparati – SHTBIXda hamda boshqa mas'ul lavozimlarda xizmat qilgan. Afsuski, 2013-yilda bu yorug' olamni tark etgan S. Po'latov o'g'lining bugungi kamolini ko'ra olmadidi.

Abror otasi va akalari – hozirda advokat bo'lib ishlayotgan iste'fodagi podpolkovnik Lazizjon Po'latov hamda

Surxondaryo viloyati IIB M va MTX bosh inspektori, mayor Azizjon Po'latov kabi egniga ichki ishlar organi kiyimini kiyish istagi ham yo'q emasdi.

Akasingning maslahati bilan IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlari harbiy orkestri katta musiqachisi lavozimida xizmatni boshlagan leytenant Abror Bekmirzayev hozirda Toshkent shahar IBB MM va KTXB Yoshlar bilan ishslash guruhi katta inspektori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

IIBB tizimida xizmat qilayotgan yosh xodimlar o'rtaida «Eng namunali yosh xodim» ko'rik-tanlovlari o'tkazish ishlarida, turli bayramlar, kitobxonlik tadbirlarining qiziqarli va yuqori saviyada o'tishida shaxsiy tashabbus ko'rsatmoqda.

Poytaxt ichki ishlar organlarida xizmat qi-



Arxiv surat: podpolkovnik Saidmurod Po'latov.

layotgan iste'dodli xodimlardan tashkil topgan «Nihol» ijodiy ja-moasi a'zosi sifatida qo'shiqlar kuylab, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarida rol ijro etib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda hamda konsert dasturlarida faol qatnashib kelmoqda.

Abror IIV «Patrul» ja-moasi a'zosi sifatida respublika «Quvnoqlar va zukkolar» ko'rik-tanloving o'tgan yilgi mavsumida finalgacha yetib borib, faxrli 2-o'rinni egalashida o'z hissasini qo'shdi.

Uning yutuqlarida yaqinlari, turmush o'rtog'i Nilufarxonning ham alohida o'rni bor. Ular ikki nafar farzandi – Zubayr va Amirxonni tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda. San'at, xizmat va oila uchligini birdek olib borayotgan qahramonimizning borar yo'llari shu alfozda yorug' bo'lib borajak.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Bolalik dan oq san'atkorlarga havas qilib, ulg'aygan Sarvarbekdagagi qobiliyatni o'z vaqtida payqagan ota-onasi uni tuman maztabiga o'qishga beradi. Ushbu san'at dargohi uning iste'dodi shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

– Maktabda o'qib yurgan kezlarim ustoz san'atkorlarning qo'shiqlarini tinglab, o'zimcha xir-goyi qilib yurardim, – deydi safdar S. G'ofurov. – Bir kun kelib katta sahnalarda ana shunday qo'shiqlarni, albatta, ijro etaman, deya niyat qilganman. Yillar o'tib, ana shu orzularim birin-ketin amalga oshmoqda.

Sarvarbek 2021-yildan beri viloyat IIB 1-mintaqaviy hududi PPX otryadining 6-guruvida safdar xodimi bo'lib xizmat qiladi.

Sohada xizmatni boshlagunga qadar turli mavzularda qo'shiqlar kuylab, bayram tadbir-

Farg'ona viloyati ichki ishlar organlarida san'at va adabiyyotga mehri baland xodimlar talaygina. Safdar Sarvarbek G'ofurov xizmat bilan uzviy ravishda ijod bilan ham shug'ullanib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan faol xodimlardan biri sanaladi.



larida, to'y-marosimlarda ishtirok etib kelgan bu yigit hozirda viloyat IIB qoshidagi «Farg'ona ohanglari» ansamblini hamda «Liderlar» teatr jamoasi a'zosidir.

Ansambl va teatr jamoasi a'zolari 2022-yilning iyun oyida Andijon viloyatida ichki ishlar organlarining yosh xodimlari o'rtaida o'tkazilgan «Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!» shiori ostidagi «Quvnoqlar va zukkolar» ko'rik-tanlovida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, shu yilning avgust oyida Toshkent shahrida ichki ishlar organlarining havaskor jamoalari o'rtaida o'tkazilgan «Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik» shiori ostidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirda ikkinchi o'rinni sohibi sifatida e'tirof etildi.


Sarvarbek har kuni o'zi istiqomat qiladigan Oltiariq tumanidagi «Chordara» mahallasidan yurt xizmatiga otlanar ekan, padari buzrukvor va validasidan duo olishni odat qilgan. Ota-onsa duosi esa er yigit uchun chinakam qalqon va soyabondir.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



## MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI



Maxtumquli 1733-yilda Gurgan daryosi sohilidagi Hoji-govshan qishlog'ida tavallud topgan. Uning otasi Davlatmamat Ozodiy ham shoir bo'lgan. Maxtumquli boshlang'ich ta'limga oilada o'z otasidan olgan. So'ng qishloq mакtabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qigan. Dastlab Xalach atrofining Qiziloyloq qishlog'ida Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko'kaldosh, Xivanining Sherg'oziy madrasalarida o'qigan. Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy, Navoiy singari mashhur shoirlar ijodidan ilhom olgan.

Shoir lirik she'rlar, lirik-epik dostonlar, g'azal va muxammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pand-nasihat xarakteridagi 10 ming misradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtumquli she'rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlari, o'z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalarini, o'zining ichki kechinmalari teran ifoda etilgan.

Ijodkorning ishq-muhabbat mavzuyidagi she'rlari ham ohangdorligi, chuqur falsafiy mohiyati

bilan ajralib turadi. Shoirning hayot va o'llim, inson va borliq, go'zal insoniy fazilatlar va odob-axloqqa oid she'rlari diniy qadriyatlarimiz hamda tasavvufiy qarashlar bilan yo'g'rilgan. Bu foni dunyoning o'tkinchiligini nazarda tutib shoir shunday yozadi:

**Makoningdir, xoki zamin qucharsan,  
Bir karvonsan, diyoringga ko'charsan,  
Mavsum gul so'lar, qurir, o'charsan,  
Ovozing gum bo'lar, tila mehmondur.**

Uning ijodida Vatanga muhabbat g'oyalari alohida o'rinn egallaydi. Shoirning ana shu ruhdagi quyidagi satrlarini she'riyat ixlosmandlari yaxshi bilihsadi deb o'ylaymiz:

**Mastona yurguncha g'ayri yurtinda,  
Unib-o'sgan o'z yurtingdan ayirma.  
Mag'rur kaklik kabi nafsing ug'rinda  
Doma tushib, qanotingdan ayirma!**



Maxtumquli, hargiz topmadni omon,  
Yomon so'zning zahri tig'lardan yomon.  
Yomon til yoninda zahri ko'p ilon  
Chaqsa-da, bir chibin chaqqancha bo'lmash.

# O'ZBEKNING TURKMAN SHOIRI

**Chinakam xalqona  
she'riyat chegara bilmaydi. U cheksiz ummonga,  
bepoyon ufqqa o'xshaydi, tillardan tillarga, el-  
lardan ellarga ko'chadi. Firog'iy taxallusi bilan  
ijod qilgan ulug' turkman  
shoiri, mutafakkiri Max-  
tumqulining she'rlari ham  
ana shu siraga kiradi. Aytish mumkinki, uning  
she'riyati kirib bormagan o'zbek xonadonini  
topish mushkul. Buning  
boisi shoir ijodida insoniy  
tuyg'ular tarannum etilganida.**

Maxtumquli uslubi xalq og'zaki ijodiga juda yaqin, ana shu beba ho manbadan oziqlangan. Shuning uchun ham xalqona, oddiy odamlarning dilidan joy oladi. U o'z she'rlarida turkman xalqining maqol va matallaridan, iboralaridan mohirona foydalangan. O'z navbatida shoirning ko'plab purma'no misralari ham turkman millatining hikmatli so'zleri, maqollari qatoridan o'rinn olgan.

Maxtumquli she'riyati barcha turkiy millatlar, jumladan, o'zbeklarning ham ma'naviy mulkiga aylangan. Uning she'rlari o'zbek tiliga qayta-qayta tarjima qilinib, kitob holida nashr etilgan. Ko'plab she'rlari hofizlar tomonidan kuyga solib aytildi. Ayniqsa, Komiljon Otaniyozov, Sherli Jo'rayev, Murodjon Ahmedov, Ortik Otajonov, Kamoliddin Rahimov, Bahrom Nazarov kabi san'atkorlar uning she'rlari asosidagi qo'shiqlarni yuksak mahorat bilan ijro etishgan.

Adabiy do'stligimiz abadiy do'stligimiz omillaridan birdir. Shu ma'noda shoir ijodi o'zbek xalqining turkman xalqi bilan qardoshlik, do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtaida yaxshi qo'shnichilik, do'stlik munosabatlari tobora chuqurlashib bormoqda. Mamlakatimizda har ikki xalq uchun birdek qadrli bo'lgan Maxtumquli shaxsiga nisbatan ehtirom o'ziga xos o'rinn egallaydi.

Jumladan, poytaxtimizda ulug' shoir nomidagi ko'cha bor hamda unga yodgorlik o'rnatilgan. Eng muhimi, o'zbek kitobxoni o'zining turkman shoiri bo'lgan Maxtumquli ijodini sevib mutolaa qilib kelmoqda. San'at shaydolari uning she'rlari asosida kuylanadigan qo'shiqlarni jon qulog'i bilan tinglashadi. Quyida uning ijodidan ayrim namunalarni e'tiboringizga havola etamiz.

**Bobomurod TOSHEV tayyorladi.**

## BO'YLARINGGA

Yursang, yorim, quvonarman,  
Sarviqomat bo'ylaringga.  
Guldan libos yarashibdur  
Ajab rohat bo'ylaringga.

Man bulbula aylab ozor,  
Olding shirin jonim nisor,  
Zulayhodan qolgan zunnor  
Bo'Isin hojat bo'ylaringga.

Ko'rsam yuzing, yo'q armonim,  
Sansiz xazon ursin jonim.  
Iqbolim, dinim-imonim  
Qilsam ziynat bo'ylaringga.

Ishq yo'linda man dod aylab,  
O'rganibman odat aylab.  
Umrim o'tar faryod aylab,  
Xo'bdur sihat bo'ylaringga.

Ko'rgan oshiq gado bo'lur,  
El-kunindan judo bo'lur.  
Maxtumquli fido bo'lur  
Bu karomat bo'ylaringga.



## YOQQANCHА BO'LMAS

Har ahmoqqa sochma darding, so'zingni,  
Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas.  
G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan  
Ashk-u nadomating to'kkancha bo'lmas.

Qanoatda, izzatda tut o'zingni,  
Tama qilib, sarg'aytirma yuzingni.  
Har nomardga hayf aylama so'zingni,  
So'zingni binosin yiqqancha bo'lmas.

Mag'rur o'lib, kezma umring guliga,  
Qorilarsan, bir kun xazon yeliga.  
Yuz yil yashab, tushsang ajal qo'liga,  
O'ngingdan so'lingga boqqancha bo'lmas.

Sulaymondan ortiq o'lsa shavkating,  
Larzonga keltirsa ko'kni haybating.  
Ko'ksing uzra ursa gurzi g'ayruting,  
Ajalning jallodi qoqqancha bo'lmas.

Ko'ngli qaro bilan bo'lmanglar ulfat,  
Yuqar andin turli-tuman kasofat.  
Har necha ko'mirga aylasang izzat,  
Qo'lingga qorasini yuqqancha bo'lmas.

## YO'L INTIZOMNI YOQTIRADI

**Ma'lumki, svetoforlarning vazifasi yo'l harakatini tartibga solishdan iborat. Bizga tanish va qadrdon bu vositalarning asl mohiyatini, ahamiyatini yaxshi anglagan har bir fuqaro ayni mazkur qurilma bilan jihozlangan yo'llarda, chorraha va piyodalar o'tish joylarida o'zlarini xavfsiz his etadilar.**

Bugun svetofor bilan tartibga solingan piyodalar o'tish joylari qanchalik xavfsiz? Ayrim haydovchi va piyodalar svetoforning ishorasiga amal qilmaslikning ayanchli yakuni, shoshqaloqlikning intihosi haqida ko'p bora gapirilayotgani qaramasdan, o'sha xatoga yo'l qo'yaveradilar. Buning natijasida ayrimlar nogiron bo'lib qolyapti, ba'zilari esa, afsuski, yorug'dunyoni erta tark etmoqda.

So'nggi vaqtarda bunday qoidabuzarlik yanada urchib bor-yapti. Ayniqsa, o'ziga ortiqcha baho beradigan, hovliqma haydovchilarning svetofor ishoralarini mensimasligi, boshqa harakat ishtirokchilari, xususan, piyodalarga yo'l bermasligi holatlari tez-tez kuzatilmoqda.

Ana shu kabi qo'pol qoidabuzarliklarga nisbatan murosasiz kurash olib borish, o'pkasini bosa olmayotgan ba'zi haydovchilarga jazo muqarrar ekanligini ta'minlash hamda sodir etgan qoidabuzarligining qanday oqibatlarga olib kelishini tushuntirish maqsadida Navoiy viloyati IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan nazorat ishlari kuchaytirildi.

## SIZGA O'XSHAGIM KELAR...

Navoiy shahridagi avtomobil yo'llarida o'rnatilgan jami 965 ta videokuzatuv kameralari viloyat IIB Vaziyatlar markaziga integratsiya qilingan. Jamoat tartibini saqlash va yo'l harakati sohasidagi deyarli barcha huquqbazarliklarga uning yordamida oydinlik kiritiladi hamda holat yuzasidan tegishli choralar ko'riladi.

... Navoiy shahri Islom Karimov ko'chasidagi tartibga solingan piyodalar

belgisi va uning haydovchisining shaxsiga aniqlik kiritildi.

Biroq mazkur qoidabuzarlikni sodir etgan haydovchi viloyat IIB JXX YHXB xodimlaridan qochib, birlamchi ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Toshkent shahrida yashirinib kelmoqda. 19 yoshli «qahramon» yigitchaning sodir etgan qoidabuzarligi va nomu-

yerda bo'lgan «Matiz» avtomobili haydovchisi to'xtab, piyodaga yo'l bergandi.

Kutilmaganda kelib qolgan mashina ayolni urib ketishiga sal qoldi. Qo'rqib ketgan ayol agar bir soniya o'zini to'xtatib qolmasa, ko'ngilsizlik yuz berishi aniq edi. Yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchi bilan profilaktik suhbat olib borildi hamda unga nisbatan ma'muriy bayonnomha rasmiy lashirildi.

Endi quyidagi vaziyatga e'tibor qarating. Ikkiga ajratilgan «G'alaba» shoh ko'chasining birinchi bo'lagidan harakatlanib kelayotgan «Matiz» kutilmaganda tezlik bilan ikkinchi bo'lakka o'tib oldi. Natijada tartibga solingan piyodalar o'tish joyidan kesib o'tayotgan ayolning hayoti xavf ostida qoldi. Yaxshiyamki, piyoda ayol chaqqonlik bilan to'xtab qoldi. Svetoforning taqiqlovchi chirog'iga amal qilmagani yetmagandek, piyodaga yo'l bermagan haydovchini topish unchalik qiyin bo'lmadi.

Qilgulikni qilib, aybini tan olish, piyodalardan uzr so'rash o'rniiga ularni haqorat qilib, ayblashga o'rgangan haydovchilar ham bor. Ular mazkur turdag'i qoidabuzarliklar hatto fojia bilan yakun topishi mumkinligi haqida mushohada qilsalar yaxshi bo'lardi. Negaki, so'nggi pushaymon o'zingga dushman. Xulosa chiqarish o'zingizdan.

**Sabina XODJAYEVA,  
viloyat IIB JXX YHXB Axborot  
guruhi Kichik mutaxassisasi, safdor.  
Navoiy viloyati.**

PIYODALAR O'TISH  
JOYLARI XAVFSIZMI?!

o'tish joyida ikki nafar piyoda yo'lni kesib o'tmoqchi bo'lishdi. Lekin svetoforning qizil chirog'ida harakatlanib kelayotgan «Lasetti» rusumli transport vositasi yuqori tezlik bilan kelib, ularga yo'l bermasdan o'tib ketdi. Piyodalarning chaqqonligi sababli, xayriyatki bu vaziyatda hech qanday noxush holat sodir bo'lmadi. Biroq mutaxassislar qoidabuzarlikni yo'l-transport hodisasiga yaqin holat deya baholashdi. Shu boisdan zudlik bilan avtomashina davlat raqam

nosib xatti-harakatlari yuzasidan surishtiruv ishlari davom etmoqda.

Navbatdagi holat. Karmana tuman, Karmana ko'chasidagi tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyidan o'tmoqchi bo'lgan ayol qo'lida bolasi bilan zebra chizig'iga yaqinlashdi. Yo'lning birinchi bo'lagidan harakatlanib kelayotgan «Spark» rusumli avtomashina haydovchisi esa piyodalar o'tish joyiga 30–40 metr masofa qolganda tezlikni pasaytirishni va piyodaga yo'l berishni o'ziga ep ko'rmadi. Vaholanki, shu

## YUTUQLARIM ZAMIRIDA USTOZIM MEHNATI MUJASSAM



**Ichki ishlar organlaridagi faoliyatimi 2017-yilning iyun oyida Sharof Rashidov tumani IIB 9-sonli tayanch punktida profilaktika inspektori lavozimida boshlagman. Xizmatimning ilk kunidan profilaktika katta inspektori, kapitan Dadajon Boboqulov mena murabbiylik qilgan. Shu tariqa har bir yumushga mas'uliyat bilan yondashadigan ustozimdan soha sirlarini o'rgana boshladim.**

Birinchi navbatda osoyishtaligini ta'minlash menga ishonib topshirilgan «Sovungarlik» mahallasi hududini ko'zdan kechirdik, ya'ni aholi punktini batafsil bilib oldim. Ustozim yo'l-yo'lakay profilaktik hisobda turadiganlar, muqaddam sudlanganlar, probatsiya xizmati nazorati ostida bo'lganlar, nizoli oilalar, giyohvandlar, ichkilikka ruju qo'yanlar haqida ma'lumot berardi. Qonunbuzarlik va ko'ngilsiz voqe'a ro'y

bergan joyga birga borardik. Qisqasi, hujjalarni rasmiylashtirishdan tortib jinoyatni fosh etishgacha bo'lgan barcha bilim va tajribalarini o'rtoqlashishdan charchamasdi.

Bilimi va hayotiy tajribasi boyligidan har qanday chigal vaziyatda muammoni hal qilishning uddasidan chiqadi.

Hozir ham o'gitlariga tayanib, ish ko'raman, maslahat olib turaman. Shu ma'noda ichki ishlar organlari xodimi bo'lib shakllanishimga katta hissa qo'shgani uchun profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Dadajon Boboqulovdan benihoya minnadtorman. Bugun erishayotgan katta-kichik yutuqlarim zamirida ustozimning mehnatlari mujassam.

**Malika SAIDOVA,  
viloyat IIB JXX HPB Xotin-qizlar  
masalalari bo'yicha bo'limining  
muhim topshiriqlar bo'yicha  
inspektori, kapitan.**

Jizzax viloyati.

NAMANGAN TOMONLARDA

## «ХО'JAQO'RГ'ONCHA» – OSOYISHTA MASKAN

Norin tumani IIB JXX Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'limi profilaktika katta inspektor, katta leytenant Hakimjon Oxunbayev 1991-yilda Namangan shahrida tug'ilgan. Namangan davlat universitetini tamomlab, mana, 4 yillardiki, ichki ishlar organlarida xizmat qiladi.

Yosh inspektor 3381 nafar aholi istiqomat qiladigan «Xo'jaqo'r'g'oncha»ni tinch hududga aylan-tirishda jonbozlik ko'rsatib, o'tgan yil yakuniga ko'ra, mahalla «yashil» toifaga kirdi. Albatta, bu ko'rsatkichga erishish oson bo'lgani yo'q. Lavhamiz qahramoni mahalla raisi Fazliddin Rahmonov boshchiligidagi xonardonma-xonodon o'rghanishlar chog'ida foydali mehnat bilan shug'ul-anmaydigan, nizoli oilalarni aniqlab, ular bilan alohida ish tashkil etdi. Giyohvandlik moddalari savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning ochili-shiga hissa qo'shdi. Hudud-dagi 39-umumta'lum makta-

bida o'tkazilgan «Davomat» tadbirida farzandi tarbiyasiga befarq bo'lgan ota-onalarni ma'muriy javobgarlikka tortib, bilim maskaniga o'quvchilarini to'liq qaytarishga erishdi.

Hakimjon tuman IIB tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida o'tkazilayotgan tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. O'tgan yil davomida jinoyat sodir etgan 2 nafar shaxsnini aniqladi. Ilgari og'ir turdagini jinoyatlarni sodir etib, ayni paytda jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan shaxslarning bir nafariga ma'muriy nazorat o'rnatgan. Avval ma'muriy javobgarlikka tortilgan hamda hozirgi kun-



da xuquqbazarlik va jinoyat sodir etish ehtimoli bo'lgan profilaktik hisobdagagi 16 nafar shaxs bilan profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirdi. Spirtli ichimlikka ruju qo'yan 3 nafar fuqaroni davolash maqsadida narkologiya dispanseriga, 2 nafar ruhiyatida o'zgarishi bor bemorlarni ruhiy kassalliklar shifoxonasiga joylashtirdi.

– Yildan-yilga ichki ishlar organlari xodimlari uchun munosib xizmat sharoitlari yaratilmoqda, – deydi katta leytenant Hakimjon Oxunboyev. Xizmat uyi va ish joyim orasi yuz qadam, farzandlarining muktabga, bog'chaga ketayotgani ko'rinib turadi. Oilang, farzandlarining oldingda, ular bilan suhabatlashishga ham vaqt topilishiga sharoitning borligidan mammunman.

## TARG'IBOT– ENG YAXSHI YECHIM

Bolalarni muktabga yoki biror joyga ku-zatishda «Yo'ldan ehtiyoj bo'lib o'tinglar!», «Avtomashinalardan ehtiyoj bo'linglar!», deb tayinlaymiz. Agar velosipedda sayrga chiqmoqchi bo'lishsa ham, «Katta yo'iga chiqmanglar, u yerda avtomashinalar ko'p», deb ogohlantiramiz. Afsuski, yo'llardagi ko'ngilsizliklar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatlarning oldini olishning yagona yo'li targ'ibot va tashviqot ishlarini manzilli davom ettirishdir. Shu maqsaddagi tadbir Namangan viloyati IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan Davlatobod tumanidagi 52-sonli umumta'lum muktabida o'tkazildi.

«Yo'l harakati intizomi bolalikdan boshlanadi» shiori ostidagi targ'ibot uchrashuvida soha xodimlari bolalarga yo'llarda harakatlanish tartib-qoidalari va piyodaning yo'ldagi majburiyatlarini amaliy ko'rinishda tushuntirib berishdi.



## «NENSI» BILAN ZAFARLAR SARI



**IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Namangan viloyati-da joylashgan 7552-harbiy qism xizmat itlari mutaxassislari guruhi 1-seksiya yo'riqchi-o'rgatuvchisi, kichik serjant Bekzod Toshboev o'z vazifasiga sidqidildan yondashishi bilan xizmatdoshlari e'tiborini qozongan. U shijoatli, ilg'or fikrli bo'lish barobarida «Nensi» laqabli xizmat iti bilan ko'plab tanlovlarda ishtirok etib, faxrlar o'rinni egallagan.**

2022-yil Qorovul qo'shinlariga miqyosida o'tkazilgan ko'pkurash musobaqasida «Qurollangan jinoyatchini zararsizlantirish va konvoylash» yo'nalishi bo'yicha faxrlar birinchi o'rinni egallagan lavhamiz qahramoni joriy yilda Vatan tinchligini va osoyishtaligini saqlashga

qo'shan munosib hissasi uchun Ichki ishlar vazirining «Qo'shin a'lochisi» esda-lik nishoni bilan taqdirlandi. Shuningdek, fevral oyida Qorovul qo'shinlariga miqyosida o'tkazilgan sportning dogbiatlon musobaqasida «antiterror» yo'nalishida faxrlar ikkinchi, «shaxsiy birinchilik» yo'nalishida uchinchi, «umumi kurs» yo'nalishida uchinchi o'rinni qo'iga kiritdi.

– Mashqlar davomida toblanamiz, irodamizni mustahkamlab, doim hushyor va ogoh bo'lishga harakat qila-miz. «Nensi» bilan birga xizmat hududimizda osoyishtalikni saqlash bilan bir qatorda, yana tanlovlarda yaxshi natijalarni qo'iga kiritish niyatidaman, – deydi kichik serjant B. Toshboev.

Sahifa materiallarini o'z muxbirimiz Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.



Урок духовности и просвещения

# ТУРКМЕНСКИЙ ПОЭТ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

**Настоящая поэзия не знает границ. Она сродни бескрайнему океану, безграничному горизонту, передается от народа к народу, покоряет сердца миллионов почитателей изящной словесности. То же самое можно сказать и о поэзии Махтумкули.**

Великий поэт и мыслитель, основоположник туркменского литературного языка Махтумкули, творивший под псевдонимом Фраги, родился в 1724 году в селении Хаджи-Говшан, в долине реки Гурган, в предгорьях Копетдага, где жили туркмены племени гёклен. Его отец, Давлатмамат Озодий, также был поэтом. Начальное образование Махтумкули получил от отца, затем учился в сельской школе под началом муллы Ниёссолиха.

Махтумкули еще в детстве начал читать по-персидски и арабски, чему немало способствовала домашняя библиотека, собранная отцом. Также в детстве он приобщился к ремеслам – шорному, кузнецкому, ювелирному. В 1753 году Махтумкули учился один год в медресе при гробнице святого Идрис-Баба в Кизил-Аяке на Амударье в Бухарском ханстве. В 1754 году отправился в Бухару, где поступил в знаменитое медресе Кукельдаш.

В зрелом возрасте поэт выбрал себе псевдоним Фраги («разлученный»). В конце каждого стихотворения он помещал этот псевдоним, иногда подлинное имя, словно обращаясь к самому себе. Это было в традиции поэзии той эпохи.

Поэт сумел выразить лучшие стремления передовых умов своего времени, думы и чаяния народа. В свой поэтический мир он сумел вобрать все краски и богатство народного творчества, расширил и пополнил его, внес много нового и своеобразного. Творчество поэта выдержало суровое испытание временем, дошло до наших дней в своей маги-

ческой и покоряющей чистоте, потрясая глубокими мыслями и чувствами.

Сохранившееся литературное наследие составляет около 10 тысяч байтов. Лирика Махтумкули написана в основном в строфической форме гошмы. В своем творчестве поэт обращался к основным вопросам бытия: молодости и старости, быстротечности и суетности жизни, добра и зла, справедливости и нравственного совершенства. Размышлял о судьбе Родины, выступал за объединение туркменских племен. Поэзия Махтумкули органически связана с народным творчеством. Он изменил туркменский поэтический язык, приблизил его к народной речи.

Тема любви также присутствует в произведениях поэта. В частности, он говорит:

**Губительным мечам под стать,  
ресницами ты ранишь,  
Под силу мертвых воскрешать  
твоим устам медвяным.  
Румяным лицом заблести –  
и запылают розы,  
Дано нарциссами цветсти  
твоим очам сурмяным.  
А мускус локонов твоих –  
всех благовоний лучше,  
А от твоих очей хмельных все –  
словно в хмеле пьяном.**



Быстротечность и бренность жизни – еще один мотив, к которому обращается поэт:

**Горько юность прошла –  
лишь утратами срок ее мерь,  
Как ни тщился, не смог отпереть  
я заветную дверь,  
Дом надежд моих пал под ударами бед  
и потерь,  
От огня моих мук сожжено  
мое сердце теперь!**

Стихи Махтумкули переведены на многие языки. В 1975 году в Париже на французском языке под эгидой ООН, при поддержке ЮНЕСКО впервые вышел сборник стихов, автором и составителем которого был Б. Каррыев.

В Узбекистане в этом году будет широко отмечаться 300-летие со дня рождения Махтумкули Фраги. Постановление об этом 19 февраля подписал президент Шавкат Мирзиёев. Принята специальная программа, в соответствии с которой намечен ряд конкретных праздничных мероприятий, в том числе готовится к печати книга «Избранные произведения» Махтумкули Фраги.

Творчество поэта давно стало духовным достоянием узбекского народа. Его стихи не раз переводились известными отечественными литераторами, неоднократно издавались. Многие произведения переложены на музыку и обрели популярность в качестве любимых народом песен. Шедеврами классики стали песни на стихи Махтумкули в исполнении таких хазаризов, как Комилjon Отаниёзов, Шерали Джураев, Муроджон Ахмедов, Ортик Отажонов, Камолиддин Рахимов, Бахром Назаров. Одна из улиц Ташкента названа в его честь, установлен памятник.

Литературная составляющая выступает одним из факторов укрепления вековой дружбы и близости узбекского и туркменского народов. Сегодня интерес к личности и творчеству Махтумкули как никогда высок.

**Соб. корр.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda\_uz



# ENG MUHIMI – NATIJA

Jomboy tuman IIBda ish bir soniya ham to'xtamaydi. Tezkor-navbatchilik xizmati, jinoyat qidiruv, ekspert guruhi... Barcha bo'linmalar yaxshi yo'iga qo'yilgan mexanizm qismlari kabi bir-biriga bog'liq. Navbatchilik qismiga qo'ng'iroq, tergov-tezkor guruhining hodisa joyiga tezkor yetib borishi, tartibli amalga oshirilgan ish va natija – jinoyatning fosh etilishi.

Tuman hududida so'dir bo'lган hodisalar va huquqbuzarliklar haqidagi barcha ma'lumotlar aynan shu yerga kelib tushadi. Ular yordam va himoya so'rab murojaat qilgan, yuzaga kelgan muammolar yuzasidan aloqaga chiqqan hudud aholisidan qo'ng'i-roqlar qabul qilishadi.


Navbatchilik qismi ro'parasida tuman IIB tarixi, shaxsiy tarkib erishgan yutuqlar haqida hikoya qiluvchi fotosuratlar bilan bezatilgan foye joylashgan. Bu yerda bir marta bo'lган inson ichki ishlар organlari xodimining xizmati naqadar serqirra ekaniga ishonch hosil qiladi. Xodimlarning aksariyati oliy ma'lumotli, doimiy ravishda o'z bilimini boyitib, jismoniy jihatdan o'zini o'zi takomillashtirish bilan shug'ullanadigan odamlar. Tuman IIB hududidagi sport maydonchasi hamisha xodimlar ixtiyorida. Zero, har bir xodim doimo jismonan sog'lom bo'lishi lozim.

Ma'lumot o'rnidida ta'kidlash joizki, Jomboy tumanida 38 ta mahalla bo'lib, ulardan ikkitasi – «Katta qishloq» va «Beshbola»

mahallari «qizil» toifadagi hududga, 8 tasi «sariq» va 28 tasi «yashil» hududga kiritilgan. O'tgan yilning shu davri bilan qiyoslanganda



hududda jinoyatchilikni o'n besh foizga kamaytirishga erishildi. Sodir etilgan holatlarning aksariyati o'g'irlik, yo'l-transport hodisalari va firibgarlik holatlari hissasiga to'g'ri keladi.



Talonchilik, bezorilik, tan jarohati yetkazish holatlari kamaydi. Shubhasiz, bu ko'rsatkichlarga har bir xodimning o'z vazifalarini bajarish yo'lidagi benuqson xizmati va mas'uliyatli munosabati tufayli erishildi. Bunda profilaktika inspektorlari ham jinoyatchilikka qarshi asosiy kurashchilar hisoblanib, ularning

sa'y-harakatlari natijasi o'larqoq, yil boshidan buyon xotin-qizlar o'rtasida birorta ham jinoyat qayd etilmagan. Ishsizlar va yoshlar o'rtasida ham jinoyatchilik darajasi kamaydi.

Sirasini aytganda, tuman ichki ishlар organlarining turli sohaviy xizmatlarda faoliyat olib borayotgan podpolkovniklardan G'ayrat Mamatov, Furqat Bo'rliyev, mayorlardan Maqsud

Olimov, Shuhrat Isaqov, katta leytenant Dilshod Mahmudov, leytenant Doston Tog'ayev singari xodimlarning kasbga sa-doqati, fidoyiligida profesionallik va malaka hamisha hamrohdir.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
*Samarqand viloyati.*



## TRANSPORT OBYEKTALARIDA

## BARCHASI XAVFSIZLIK UCHUN

**Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh-qarmasi xodimlari xizmat hududlaridagi transport infratuzilmasi obyektlarida jinoyatchilikni jilovlash, yo'lovchi va yuk poyezdla-rining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash borasida qator ishlarni amalga oshirmoqda.**



Joriy yilning dastlabki uch oyi mobaynida boshqarma jinoyat qidiruv bo'linmasi xodimlari tomonidan 9 ta jinoyat aniqlandi. Qolaversa, boshqarmada «Uzoq muddat» ishchi guruhi tashkil etilgan bo'lib, aeroport orqali uzoq muddatga chiqib ketayotgan 30 nafar, kirib kelgan 35 nafar fuqaro ro'yxatga olindi va ular bilan tezkor profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Shuningdek, vatanga qaytish guvohnomasi bilan qaytarib yuborilgan 72 nafar fuqaro bilan ham profilaktik suhbatlar olib borildi.

...Yanvar oyining o'rtalari. «Termiz masofa» korxonasida motovoz mashinisti bo'lib ishlovchi G'. Sadriev (ism-shariflari o'zgartirildi) sherigi Zafar Nabihev bilan birga til biriktiradi. Ular «Jarqo'rg'on» temiryo'l bekatida 30 litr dizel yonilg'isini motovozdan olib qolishni rejalashtirib, ishga kirishi-shadi. Kun botib borayotgan mahal yonilg'ini olishgach, uni bekatdan olib chiqib ketishayotganida boshqarma xodimlari tomonidan olib borilgan

tezkor tadbirda qo'liga tushishadi. Ushbu holat yuzasidan tergovga qadar surishtiruv ishlari olib borilib, ularga nisbatan qonuniy chora ko'rildi.

Tergov guruhi tomonidan shu kabi jami 13 ta jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari olib borildi. Shundan

3 ta jinoyat tergov yo'li bilan fosh etildi. Tergov harakatlari olib borilgan jinoyat ishlari bo'yicha 8 ta taqdimnomalar kiritilib, bu bo'yicha korxona va tashkilotlarda uchrashuvlar ham o'tkazildi.

**Aytish kerakki, patrul-post xizmati va jamoat tar-tibini saqlash guruhi tomoni dan turli siyosiy-ijtimoiy, sport va madaniy-ommaviy hamda yuqori martabali delegatsiyalar tashrifi bilan bog'liq tadbirdarda trans-port infratuzilmasi obyektlarida jamoat xavfsizligi ta'minlanmoqda. Ularning sa'y-harakati bilan o'tkazilgan «Tig» tadbiri davomida esa 31 ta tig'li predmet olib qo'yildi.**

- Viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xizmat hududlari qariyb 407 kilometrni tashkil qiladi, - deydi boshqarma huquqbazarliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, kapitan G'.Shaynazarov. - Temiryo'l izlari viloyatning deyarli barcha hududlaridan o'tadi. Mazkur hududlar yaqinida 84 ta maktab, 116 ta mahalla, 60 ga yaqin korxona va tashkilotlarda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, baxtsiz hodisalarining oldini olish bo'yicha profilaktik suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda. Profilaktika inspektorlari tomonidan esa huquqbazarlik sodir etgan shaxs-



larga nisbatan joriy yil boshidan beri 1265 ta ma'muriy bayonnomma rasmiy-lashtirildi.

Boshqarmada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ham ijobji ishlari qilinmoqda. Qisqa vaqt oralig'ida shaxsiy tarkibning teatr, muzej hamda turistik ob'yektlarga sayohatlari tashkil etildi. Axir, yaxshi dam - mehnatga hamdam deb, bejiz aytishmaydi-da. Shuningdek, boshqarma xodimlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadida 3 nafariga yangi xonardon sotib olish uchun uyning boshlang'ich to'lovi to'lab berildi. Yana yashash uyini ta'mirlamoqchi, turli marosimlar o'tkazmoqchi bo'lgan 18 nafar xodimga pul mablag'lari ajratildi, 11 nafarining ijara pullari to'lanib kelinmoqda.

**Feruza RAHMONQULOVA,  
o'z muxbirimiz.**

*Surxondaryo viloyati.*

BIZ KORRUPSIYAGA  
QARSHIMIZBURCHIGA  
SODIQ

**Shahrisabz tumani IIB JXX YHXB inspektori, katta ser-jant X.Yuldashev «Saroy» mahallasi hududida «Yakkabog' – Shahrisabz» yo'naliishi bo'yicha harakatlanib kelayot-gan «Damas» rusumli avto-mashinani to'xtatdi. Haydovchi bilan suhbat chog'ida undan spirtli ichimlik hidi kelayotgani sezildi.**



Darhaqiqat, haydovchi, Yakkabog' tumani «Sandal» mahallasida yashovchi fuqaro J.M. tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda unda alkogoldan mastlik holati aniqlandi. Shunga asosan, katta serjant X.Yuldashev tomonidan haydovchiga nisbatan tegishli ma'muriy bayonnomma rasmiylashtirilib, avtomashina jarima maydonchasiغا qo'yildi. Holat yuzasidan to'plangan hujjatlar esa Shahrisabz tumani IIB JXX YHXB ma'muriy huquqbazarlik materiallari bilan ishslash guruhiga topshirildi.

Oradan uch kun o'tdi. Haydovchi J.M. Shahrisabz tumani IIB JXX YHXB boshlig'i, kapitan Shaxtiyor Otaqu-lovga uchrashib, chora ko'rmaslik va avtomashinasini jarima maydonchasi dan chiqarib berish evaziga 200 AQSH dollarini miqdorida pora taklif qildi. Kapitanning barcha urinislari bekor ketdi, ogohlantirishlarga qaramasdan u o'z ahidian qaytmadi.

IV SHXBB Qashqadaryo viloyati bo'yicha bo'limi hamda Shahrisabz tuman prokururaturasi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbir-da haydovchi J.M. kapitan Sh.Otaqu-lovga 200 AQSH dollarini miqdorida pulni pora tariqasida berayotganda ushlandi. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Huquqbazarligi jinoyatga yetaklagan haydovchi endi qilmishining mohiyatini anglab yetsa, ajab emas. Bunda kasbiga, burchiga sodiq qolib, jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlagan, halollikni xizmat faoliyatining bosh shioriga aylantirgan kapitan Sh.Otaqulov singari xodimlarni soha fidoyisi sifatida e'tirof etish o'rini.

**Hamza NIYOZOVA,  
kapitan.**

*Qashqadaryo viloyati.*



■ Самаркандская область

## СОСТАЗАНИЯ, ОБЪЕДИНИЯЮЩИЕ СЕМЬЮ

Не первый год Исмоиловы участвуют в смотре-конкурсе «Образцовая семья». Каждый раз до победы не хватало совсем чуть-чуть. В прошлом году они заняли второе место, теперь им удалось выступить лучше всех.



Областной этап конкурса по традиции проходил в доме творчества «Нурафшон» города Самарканда.

За право быть лучшими боролись 16 семей. По условиям конкурса им предстояло с помощью видеоролика показать, как они проводят досуг и продемонстрировать артистические способности.

Лучше всех с заданиями справилась семья Исмоиловых. Ее глава – подполковник Фуркат

Исмоилов начальник временного изолятора Тайлянского РОВД. Вместе с супругой они воспитывают двоих сыновей и дочь.

– Моя жена из Навоийской области, но училась в Самарканде, – рассказывает глава семейства. – Она часто приходила к нам в гости, вернее, к моей сестренке, с которой дружила. Вместе они учились в медицинском колледже. Тогда я еще был студентом СамГУ. Мы познакомились, завязались дружеские отношения. После

окончания вуза решил жениться на ней. Вместе мы уже 18 лет.

На вопрос, что им дало участие в конкурсе, глава семейства ответил:

– Во время подготовки мы испытывали радость от совместного творчества, выбирая фотографии, сочинения стихи, рисуя, готовя творческий выход. Но интереснее всего было наблюдать за другими конкурсантами, за их взаимоотношениями, поддержкой и взаимовыручкой. Мне кажется,

залог семейного счастья – это создание и поддержка гармоничных отношений, основанных на доверии, уважении и любви. Крепкая дружная семья дает человеку силы, помогает в трудную минуту. Подобные конкурсы сплачивают. Мы получили огромное удовольствие. Турнир показал, что победить в нем может любая семья, где понимают друг друга!

**Замира БАЛТАЕВА,  
соб. корр.**

### «Яшил макон»

Благодаря усилиям сотрудников органов внутренних дел Джизакской области в махалле Таракқиёт Зарбдорского района основан сад. На площади 3,5 гектара высажены плодовые и декоративные деревья. В махалле Бахт Галляральского района посадили 1,5 тысячи саженцев тутовника.

Помогли с озеленением поселка городского типа «Нурафшон» и массива «Тинчлик» Зафарабадского района. Здесь соответственно высажены две тысячи саженцев тутовника и 500 саженцев черешни.

Подобную акцию экологической направленности провели в махалле Куёв-



### Джизакская область

боши Шараф-Рашидовского района, где возводятся дома для сотрудников органов внутренних дел. В будущем жилом массиве уже потянулись ввысь 250 саженцев черешни. Между тем сотруд-

ники органов внутренних дел Фаришского района уже высадили 1800 саженцев, а их коллеги из Бахмальского района успели дать жизнь 1200 деревьям.

**Соб. корр.**



В рамках общенационального проекта «Яшил макон» на улице Пойгох махалли Фозилтепа, сотрудники УКД ОВД Учтепинского района г. Ташкента высадили плодовые и декоративные деревья, а также 200 саженцев винограда. В этой инициативе приняли участие 15 жителей и активистов махалли. Это замечательный пример совместных усилий, направленных на улучшение окружающей среды и создание комфортной атмосферы для жителей района.

**Соб. корр.**



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

NUQTAYI NAZAR

# SUN'YIY INTELLEKT KELTIRADIGAN XAVF

**Yangi asr bashariyatga xavf-xatarlarning yangi turini «hadya etmoqda».**  
**Bir tomonidan, iqtisodiyot, sanoat, xizmat ko'rsatish kabi sohalarga axborot texnologiyalarining joriy qilinishi, raqamlashtirishning samarasi juda katta. Ilm-fan taraqqiyotida ham algoritmlashtirishning o'rni beqiyos. Ammo tanganing orqa tomoni ham bor. Sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari har bir individ hayotiga allaqachon daxl qilishni boshladi.**

## QISQARAYOTGAN ISH JOYLARI


Raqamli texnologiyalarning rivoji ularning imkoniyatlari cheksiz ekanligini ko'rsatyapti. Optimus kabi gumanoid-robotlar odam xatti-harakatini eng nozik plastik darajasida takrorlay olishi bilan hayratga solyapti. Bu esa u inson bajarishi mumkin bo'lgan deyarli har qanday yumushni o'z zimmasiga olishi mumkinligini ko'rsatadi. Yevropaning ko'pgina shaharlarda allaqachon dronlar yordamida yetkazib berish amaliyoti yo'lgan qo'yilgan. O'z navbatida bu yuzlab ish joylarining qisqarayotganidan dalolat.

Raqamli texnologiyalar joriy qilingan eng ilg'or sohalardan biri — avtomobilsozlikdir. Aqli robotlar ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni bajaryapti. Keyingi yigirma yillik tahhiller eng ko'p ish joyi qisqargan sohalar reytingida avtomobilsozlik yuqori o'rnlardan birini egallaganini ko'rsatdi. Ikki minginchchi yillar boshida «General motors» yuz mingdan ortiq ish joyini qisqartirganini ko'pchilik yaxshi eslaydi.

## METAOLAMGA QARAMLIK

Dastlab ermak tarzida kirib kelgan kibero'yinlar keyingi o'ttiz yilda shu darajada takomillashdiki, endilikda butun boshli avlodning hayotini ularsiz tasavvur qilib bo'lmay qoldi. Bugun besh yoshli bola velosiped haydashni bilmasligi mumkin, lekin «PUBG» nimaligini yaxshi biladi. Zo'ravonlik, urush, o'qotar qurollar bilan hujum qilish sahnalariga boy kibero'yinlar bo'lalarni boshqa olam qa'rige tortib ketayotgani ayni haqiqat. Kibero'yinlarga berilgan shaxslarda

lanjlik, atrofdagilarga befarqlik kabi chuqr salbiy ruhiy o'zgarishlar kuzatilyapti. Agar shu tarzda davom etaversa, ong-u tafakkuri butunlay metaolamga bog'lanib qolgan shaxslar yetishib chiqadi. Ularni esa kiberzanjirlar bilan boshqarish osonlashadi. Shaxs erkinligi yo'qoladi. Odamlarning metaolamga tobelligi giyohvandlik darajasiga yetib borishi xavfi ortadi.



## SUN'YIY INTELLEKT QUDRATI

2023-yil dunyoning ko'pgina IT gigantlari sun'iy aql yaratish bo'yicha katta siljishga erishishdi. Chaqqon kompaniyalar allaqachon ular yordamida pul ishlab topishni boshlab yuborishdi. Masalan, fotomuharrir texnologiyalari yordamida endilikda har kim o'zini eng dongdor qahramon qiyofasida tasvirlay olishi mumkin. «Fotolab», «Face Me» kabi ilovalar yordamida shaxs suratini benihoya o'zgartish mumkinligi ham barchaga ayon.

Xorijning ayrim telekompaniyalari sun'iy intellekt teleboshlovchilarini xizmatidan foydala-

nishmoqda. Bunday boshlovchilar matn o'qishda xato qilmasligi, tashqi ko'rinishining jozibadorligi bilan qulay. Bundan tashqari, ularning ishga kech kelmasligi, kasal bo'lib qolmasligi kabi ustunliklari ham bor. Eng muhim, ularga maosh to'lash shart emas.

Sun'iy intellekt shu darajada reallikka kirib kelyaptiki, «GBT» va «GEN-2» neyrotarmoqlari o'zar birashib, sun'iy aql yordamida to'liq metrajli kinofilmlarni sahnalashtirishga kirishishdi. Internetda e'lon qilingan dastlabki fragmentlar ushu filmlar tajribali kinoindustriyalar tomonidan

yaratilganidan qolishmasligini ko'rsatdi. Farqli jihat - film olish uchun hech qanday aktyorlar, dekoratsiyalar, operatorlar, texnikalar shart emas. Hammasi metaolam xayolotida yaratiladi. Bu esa yaqin kelajakda minglab ish joylarining qisqarishini anglatadi.

## XAVF

Dunyoning 27 ta eng rivojlangan davlati ekspertlari sun'iy intellektini insoniyat kelajagi uchun jiddiy xavf ekanini tan olishdi. Jarayon sun'iy intellekt kelajakda iqtisodiyot, jamiyat, san'at, OAVni to'liq qamrab olishini ko'rsatmoqda. U shu darajada ommalashadiki, ovqatlanish, yotish-turishdan torrib, hattoki hojatxonada ham uning ta'qibidan qochib qutulib bo'lmay qoladi. Natijada sun'iy intellekt keltiradigan xavf yadro bombasiniidan kam bo'lmaydi. Farqli jihat, sun'iy aql inson nazoratidan chiqib ketsa, boshqaruvni o'z qo'liga olib, odamlarni zombilarga aylantirishi mumkin. Mana shunday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun hozirda xalqaro miqyosda sun'iy aqdan foydalanishning aniq reglamentlari ishlab chiqilmoqda.

Abdurahmon  
**MUSTAFOQULOV,**  
jurnalist.



 AYOL VA JAMIYAT

## YAQINLARI – UNING QANOTI

Podpolkovnik Gozzal Shamshetova Toshkent shahar Yakkasaroy tumani IIOFMB HPB tahlil va muvofiqlashtirish guruhi inspektori sifatida faoliyat yuritayotganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Qoraqalpog'iston Respublikasidan poytaxtga kelib xizmatni davom ettirayotgan xodima tezda jamoaga singishib ketdi. Rahbariyat topshiriqlarini hamkasbleri bilan hamkorlikda sifatli va risoladagidek bajarishga harakat qilmoqda.

Qoraqalpoq qizining bu kasbni tanlashiga otasi – iste'fodagi polkovnik Maxsetbay Shamshetov orzusi sabab bo'lgan.


– Olibda uch nafar farzandmiz, – deydi podpolkovnik G. Shamshetova. – Otam uchalamizning ham ichki ishlar organi xodimi bo'lishimizni judayam xohlar edi. Ammo singlim Gulnaz va ukam Islambek bu sohadan ketmadni. Hozir ularning ikkisi ham Qo'ng'iroq temiryo'l vokzalida faoliyat yuritishadi. Men esa otamning orzusini amalg'a oshirish uchun o'qidim, izlandim va IV Akademiyasiga o'qishga kirdim. Otam doim menga sohada xizmat qilish oson emas, har qanday qiyinchiliklarga bardoshli bo'lgan. Mana, leytenant

unvoni yelkangda, uning mas'uliysi katta, kelgusida eng yuqori unvonlarga sazovor bo'lish uchun, kasbingni sevgin, deya meni ruhlantirar edilar. Afsus, otam leytenantligimda olamni tark etdi. Lekin men otam orzu qilganidek olg'a intilib, katta-katta yutuqlarga erishishga harakat qilyapman.

Qahramonimizga qanot bo'ladigan onasi Roza opa yonida. Singlisi va ukasi Gozzalni qo'llab-quvvatlab turishadi. Shuning uchun ham kasbiga borini berib, ota orzusini ushaltirish yo'lida ildam odimlamoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



 INSONPARVARLIK IFODASI

## QUVONCH VA HAYAJON CHULG'AGAN QALBLAR

Kechirimlilik, bag'rikenglik xalqimizga xos boqiy qadriyatlaridandir. Bilib-bilmay jinoyat sodir qilib, jazoga hukm qilinganlar aybini tushunib, pushaymon bo'lganlarni ulug' ayyom arafasida Prezidentimiz tomonidan afv etish xayrli an'anaga aylangan.

Muborak Ramazon hajiti munosabati bilan Yurtboshimiz xalqimizga xos ezzulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimlilik kabi olijanob fazilatlarning yorqin ifoda-si sifatida «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'li-

jazodan to'liq ozod etildi, 200 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 26 nafarinig ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 65 nafar shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.



ga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi Farmonni imzoladilar.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 426 nafari shaxs afv etildi. Ularning 135 nafari asosiy

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'rige qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rinn to-pishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

– Bugun men uchun ham, oilam uchun ham ikki hissa



bayram bo'ldi,  
– deydi ozodlik quvonchlarini o'rtoqlashar ekan Azizjon Karimboev.  
– Mening xatolarimni kechirib,

to'g'ri yashashim uchun imkon bergen Prezidentimizdan minnatdorman. Bundan keyin berilgan imkoniyatdan oqilonan foydalanib, halol mehnat qilaman, Vatanimga, xalqimga sidqidildan xizmat qilaman.

Bugun ana shunday quvonch va hayajon chulg'ab olgan qalblar talaygina. Ozodlik quvonchi nafaqat ozod etilgan shaxslarni, balki ularning turmush o'rtoqlari, ota-onalari, farzandlari, yaqinlarining ham qalbarini quvonchga to'ldirib yuborgan bo'lsa, ne ajab. Umidimiz – endi ular hayot yo'llarida boshqa adashmasinlar.

**Shahrizod SHOKIROV,**  
katta leytenant.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)




[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

■ Андижанская область

# ВЫДЕРЖКА И САМООБЛАДАНИЕ



**Такими качествами обладает старший специалист отделения правовой статистики и оперативно-учетной информации УВД Андижанской области капитан Зохидилло Гафуров.**

З. Гафуров после окончания Высших курсов Академии МВД по подготовке сержантского состава в 2011 году начал службу инспектором группы четвертой военизированной пожарной части Шахриханского РОВД. Пара лет назад был переведен в отдел правовой статистики и оперативно-учетной информации.

С того времени до сегодняшнего дня Зохидилло занимается профильной работой, направленной на информационное обеспечение деятельности правоохранительных органов.

– В своей работе используем автоматизированную информационно-

справочную систему. Она эффективна и удобна в практическом применении. Но своевременное выполнение запросов лишь часть повседневной профессиональной деятельности. Одной из разновидностей выполняемой информационно-справочной работы являются разработка и заполнение таблиц соответствующими данными. Например, о зарегистрированных на обслуживаемой территории и расследованных преступлениях, что позволяет видеть общую картину по находящимся в производстве уголовным делам, – рассказывает капитан З. Гафуров.

Базовым основам профессии Гафуров учился у своего наставника – подполковника в отставке Муродилло Сотвондиева.

**Борис КЛЕЙМАН,  
соб. корр.**

■ Кашкадарьинская область

# ВКЛАД ДОБРОВОЛЬНЫХ ПОМОЩНИКОВ



В минувшем году в Узбекистане произведено свыше 418 тысяч легковых автомобилей. Согласно данным Центра экономических исследований и реформ, с начала 2024 года продано 128 тысяч автотранспортных средств. Неуклонное увеличение автопарка актуализирует вопросы обеспечения безопасности дорожного движения.

В частности, в Кашкадарьинской области зарегистрировано 367 066 транспортных средств. Действуют 1 225 общеобразовательных школ, 393 из которых расположены рядом с дорогами.

В целях обеспечения безопасности учеников данных образовательных учреждений утверждено положение о добровольной общественной структуре «Йўл посбони», оказывающей на общественных началах содействие государственной службе обеспечения безопасности дорожного движения. Во исполнение данного документа, Управлением безопасности дорожного движения СОБ УВД Кашкадарьинской области налажена деятельность вышеназванной общественной структуры.

В нее входят 234 добровольца. В том числе привлечены 7 представителей СМИ и общественности, 49 молодежных активистов и 178 учеников старших классов. Они обеспечивают контроль над тем, как учащиеся школ, расположенных вдоль дорог, пересекают проезжую часть.

Недавно в данную структуру принято еще 80 добровольцев. Отбор производил совет, сформированный из сотрудников УБДД СОБ областного УВД и представителей общественности.

Словом, действуются все возможности для предупреждения ДТП, обеспечения безопасности на дорогах, соблюдения участниками установленных Правил дорожного движения.

**Мансур ЭГАМБЕРДИЕВ,  
капитан.**


[www.postda.uz](http://www.postda.uz)

[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)

[www.facebook.com/postdaуз](https://www.facebook.com/postdaуз)

[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)

▶ YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

Katta leytenant Abdulla Sa'dullayevning ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga endigina to'rt yildan oshdi. O'tgan shu qisqa vaqt ichida u o'zining fidoyiliqi, kasbiga sadoqati tufayli hamkasbleri o'rtaida hurmat qozondi.

## «HURRIYAT»NING JONSARAK INSPEKTORI

IIV Akademiyasini tamomlagan Abdulla Sa'dullayevga Bog'ot tumanidagi «Hurriyat» mahallasi osoyishtaligini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Yosh leytenant ishni ichkilikka ro'ju qo'ygan fuqarolarni majburiy davolash muassasasiga joylash-tirishdan boshladi. So'ngra muqaddam sudlangan hamda jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar olib bordi. Notinch oilardagi muhitni sinchkovlik bilan o'rganib, muammolarga yechim topishga intildi. Asosiysi, jinoyat va huquqbazarliklarni tegishli sohaviy xizmatlar xodimlari bilan birgalikda «issiq izida» fosh etishga harakat qildi. Mahalla faollari, keng jamoatchilik va killari bilan hamkorlikda amalga

– Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasi xodimdan chuqr bilim, yuqori kasbiy mahorat hamda jismoniy va jangovar faollikni talab qiladi, – deydi tuman IIB JXX HPB boshlig'i, mayor Murod Zaripov. – Profilaktika inspektori, katta leytenant Abdulla Sa'dullayev ana shunday ijobiy fazilatlarga ega yosh, shijoatli xodimlarimizdan biri. U zimmasiga yuklatilgan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashib, ijobiy natijalarini qo'liga kiritib kelmoqda. Xususan, o'tgan yil yakuni bo'yicha o'tkazilgan «Namunali mahalla huquq-tartibot maskani» ko'rik-tanloving viloyat bosqichida «Eng faol profilaktika inspektori» nominatsiyasi g'olib deb topildi.



oshirilgan sa'y-harakatlar o'z samarasini berdi. Ko'p o'tmay «Hurriyat» mahallasi jinoyatdan xoli hudud sifatida e'tirof etildi.

Joriy yilning o'tgan davrida mahalla hududida sodir etilishi mumkin bo'lgan 3 ta jinoyatning barvaqt oldi olindi, ajrim yoqasiga kelib qolgan 1 ta oila saqlab qolindi, tazyiq va zo'rvonlikka uchragan 1 nafar ayloga himoya orderi berildi. Turli huquqbazarliklarga qo'l urgan 48 nafar kishiga nisbatan ma'muriy bayonnomma rasmiylashtirdi. Shu bilan birga, 12 nafar fuqaroning ish bilan ta'minlanishida ham profilaktika inspektori katta his-sasini qo'shdidi.

Albatta, muvaffaqiyatlarga o'z-o'zidan erishilmaydi. Bu bir maqsad atrofida jipslashib, qo'lni-qo'liga berib xizmat qilayotgan mahalla fuqarolar yig'ini raisi O'tkir Eshmuratov, hokim yordamchisi Nozimjon Komilov, xotin-qizlar faoli Kamolat Sайдова, yoshlar yetakchisi Ro'za Yuldashevning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari mahsulidir. Mazkur hamkorlik natijasida mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ijobiy hal etilib, hudud osoyishtaligi ta'minlanmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

## INTILGANGA TOLE YOR



**Ikromjonning otasi Ilhomjon aka uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan. Iste'foga Qorasuv shahar IIB boshlig'i lavozimidan mayor unvoni bilan chiqdi. Ikromjon ulg'aygach, ota izidan borishni qat'iy ahd qilgan. Bu orzusi darhol bo'lmasa-da, lekin amalga oshdi.**

Andijon qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan yigit bir necha yil loyiha byurosida muhandis-konstruktur bo'lib ishladi. Axiyri otasiga ichki ishlar organlarida xizmat qilish niyati da ekanini bildirdi. Ilhomjon aka xizmat mashaqqatlaridan so'z ochib, qanday bo'limasin, o'g'lini niyatidan qaytarishga urindi. Ammo yigit o'z so'zida qat'iy turdi ...

Ota-onasining duosini olgan Ikromjon Arabboyev ichki ishlar organlari safiga qabul qilindi. Uch yil davomida Xonobod shahridagi «Yangi hayot» mahallasida profilaktika inspektori bo'lib ishladi va fidokorona xizmati bilan rahbariyat e'tiboriga tushdi. 2023-yilda uni Jamoat xavfsizligi xizmatiga o'tkazib, kadrlar bilan ta'minlash guruuning muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori etib tayinlashdi.

– Ishimiz murakkab va mas'uliyatli, – deydi katta leytenant I.Arabboyev. – Guruhimiz viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi, patrul-post xizmati uchun kadrlarni tanlash va

joylashtirish bilan shug'ullanadi. Yoshlarni tarbiyalash va o'qitish, xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun mas'uldir. Bu JXX kadrlar bilan ta'minlash guruhida ishlaydigan mutaxassislar zimmasiga yuklangan vazifalarning to'liq ro'yxati emas. Oliy ma'lumotga ega bo'lishimga qaramay, amaldagi qonunchilik va boshqa muhim hujjatlarni chuqurroq o'rganish maqsadida IIV Akademiyasining sirtqi bo'limiga o'qishga kirishga qaror qildim.

Katta leytenant Ikromjon Arabboyevning fikricha, bugungi jamiyatning alohida e'tibor talab qiladigan muammolaridan biri korrupsiya muammosi bo'lib, bu ommaviy axborot vositalarida ushbu masalaga qaratilayotgan e'tibor, shuningdek, mamlakat rahbariyati tomonidan yurtimizda unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan faol chora-tadbirlarda o'z aksini topmoqda.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.




ҮҚИШНИ ТАВСИЯ ҚИЛАМАН

# МУВАФФАҚИЯТГАЧА БЎЛГАН МАСОФА

Дунё адабиётининг энг ноёб дурданаларидан бири бўлган «Мартин Иден» романини буюк ёзувчи Жек Лондоннинг ўзига хос автобиографик асари, дейиш мумкин. Инсон ва жамият, кескин синфий та-бақаланиш, унинг инсон ҳаётидаги фалсафий-ижтимоий аҳамияти бундан юз йиллар аввал қанчалар долзарб бўлган бўлса, айни пайтда ҳам шундай долзарб саналади. Бой хонадон қизини севиб қолгач, соғ муҳаббат туфайли рўёдек туюлган орзуга интилган Мартин ўша орзусига эришганида унинг сароб эканини англаб етади. Бу орзуни у эмас, севган қизи Руфъ эмас, балки жамият ва унинг шафқатсиз қонунлари саробга айлантиради. Мартин тушунган нарсани Руфъ ҳеч қачон англаб етолмаганидек, қиз ардоқлаган қадриятлар ҳам Мартин учун ҳамиша бегона бўлиб қолаверади. Асар мутолаасидан сўнг китобхон ҳар қандай жамият ва тузумда чин инсон бўлиш, буни англай олиш энг юксак ва олий қадрият эканини ҳис қиласди.

Ёш денгизчи Мартин Иден аслоздар хонадони вакили Артур Морзни безорилар тажовузидан қутқариб қолади. Бунга миннатдорлик рамзи сифатида Артур уни уйига меҳмонга таклиф этади. Девордаги мойбўёқ билан ишланган сурат, турли китоблар, аслзода хонадон әгаларининг бир-бирига бўлган гўзал муомаласи, сўзлашув маданияти, бир сўз билан айтганда, яшаш тарзи тўпори денгизчида катта таассурот қолдиди.



«Руфъ! Бу мистер Иден бўлади» – китоб мутолаасига берилиб кетган меҳмоннинг бутун вужудини хонага қизнинг кириб келгани эмас, унинг акаси айтган гап сескантириб юборади. Ҳа, «мистер Иден» деган сўз уни сесканиб кетишига мажбур қилган эди. Ахир, у шу вақтгача «Иден», «Мартин Иден» ёки соддагина қилиб «Мартин» деба чақиришларига аллақачон ўрганиб кетганди-да. Шу лаҳзада кўз ўнгидан ўзига таниш бўлган ўтхоналар, трюмлар, доклар, пристанлар, қамоқхона ва касалхоналар, шунингдек, хароба уйлар манзаралари бирин-кетин ўта бошлайди. Қизга кўзи тушгач эса, хотирасида ғужон ўйнаб ётган пала-партиш лавҳалар бирданига ғойиб бўлади. Унинг рўпарасида назокатли бир жонон турарди. Руфъ Мартинни шу даражада сеҳрлаб қўядики, ҳатто қизнинг қанақа кийимда эканлигини

ҳам пайқамайди. Аммо бир нарсага, яъни унинг либоси ҳам ўзи сингари ғоят ажаб эканлигига ишонарди. Мартин Руфъ билан қўлларини сиқиб кўришаётган чоғда қиз унга қараб турганини сезади. Шунда ўзи олдин дуч келган ва учрашган аёллар билан қизни таққослар экан, бундай гўзал дилбарни олдин кўрмаганига иқор бўлади. Руфъ Мартин учун гўзаллик ва ақл бовар килмас поклик тимсоли эди.

Ушбу хонадонга бир неча бор ташриф буюрган Мартинда қизга етишиш истаги аланга олади. Турли китобларни ўқиди, фақат пул зарур бўлгандагина денгизга сафар қиласди. Бу орада Мартинда ёзувчи бўлиш foяси туғилади. Қисса ва ҳикоялар ёзиб, газета-журналларга тарқатади. Аммо барча уринишлари зое кетади. У жуда кўп ёзар, аммо асарларини ҳеч ким чоп этмасди.

Аста-секин қизнинг қалбини забт этгач, денгиз сафарларини буткул йиғишириб

«Мартин Иден»ни ўқир экансиз, бир пайтлар уни камситган, ҳатто ҳақорат қилган инсонлар яна муносабатини ўзгартирганини кўрасиз. Руфнинг оиласи ҳам Мартинни яна зиёфатларга таклиф эта бошлага-нига ортиқча ажабланмай қўясиз...

Мартин ўзига «Нега улар менга энди ҳурмат кўрсатишяпти, зиёфатларига таклиф қилишяпти? Ахир, мени машҳур қилган асарларимни очликда, фариблиқда, касал ҳолатда ўша кулбада ёзгандим-ку. Ахир, бу меҳрибончиликлари, бу ғамхўрликлари менга ўша пайтда керак эди-ку. Ўшанда оч, пулсиз эдим. Энди эса истаганимча пулим бор, қорним тўқ, машҳурман. Буларнинг меҳмондорчилиги менга энди керакмас. Инсонлар, наҳотки, шунчалик тубан бўлса?!», деба савол беради. Иккюзламачилик Мартинга жуда оғир ботади. Бир бурда нонга зор юрган кунларида унга эшигини ёпган кимсаларнинг



бир сўз билан айтганда, инсонга нима керак бўлса, барчасига эришди. Лекин жамиятдаги муҳит, инсонлардаги иккюзламачиликлар сабаб у баҳтсиз эди. У тобора машҳур бўлиб кетаётган бўлса-да, бир пайтлар нашриётлар чоп этишини истамаган асарларини ўша қашшоқлик пайтларида ёзганини ўйлаб сиқилади...

Китобни мутолаа қилар экансиз, асар қаҳрамонининг меҳнаткашлиги, мақсади сари дадил интилишини кўриб, беихтиёр, унга ҳавас қиласиз. Ахир, тан олайлик, орамизда биргина муваффақиятсизлиги учун мақсадини ўзгартирган инсонлар кўплаб топилади. Бир кунда 6 соат ўйқуни одат қилган Мартиннинг ҳатто ухлаб қолмаслик учун ётогига мих тираб чиққанини тасаввур қилар экансиз, ҳайратингиз янада ошади. У сиз билан менга ўхшаб «бугун бўлмаса эртага бўлар», деба хотиржамлика берилмайди. Мақсади сари қатъий интилади. Оқибатда интилгани сароб бўлиб чиққанини кўрган қаҳрамонимиз бир пайтлар ундан юз ўғирган жамиятдан нафраланади. Ахир, Мартин Иден ўхшашга интилган, ҳавас қилган, ўқимишли, маданиятли кимсалар, аслзодалар у тасаввур қилгандек бўлиб чиқмади. Руфнинг қайтиб келиши, ҳатто ота-онасининг ҳам бунга хайриҳоҳлиги Мартиннинг тасаввурини ўзгартира олмайди, аксинча, унинг нафақат жамиятдан, балки бу ҳаётдан безишига олиб келади...

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, асарни ўқиш бизга, айниқса, ёшларга ҳеч нарсага шунчаки эришиб бўлмаслигидан катта ҳаётий сабоқ беради. Тинимсиз, изланиш, муваффақиятсизликлардан чўчи-маслик, умидсизликка тушмаслик, доимо мақсад сари олға интилишини ўргатади.

**Шерзод АБДУСАМАДОВ,  
журналист.**



қўяди ва натижада қашшоқликка юз тутади. Бор-будини гаровга бериб, кўчадаги ҳар бир бақолдан қарз бўлиб қолади. Шунда ҳам мақсадидан воз кечмайди. Бу орада Руфъ ҳам ундан юз ўғиргач, Мартин Иден бутунлай ёлғизланиб қолади...

Кутилмаганда Мартиннинг битта асари оммалашиб кетади. Олдин асарларини рад қилган газета-журналлар энди катта гонорар эвазига материалларини сўрай бошлайди. Денгизчи йигит шу тариқа машҳур шахсга айланади.

соҳта мулозаматлари уни жамиятдан бездиради. Аммо оғир кунда ёрдам қўлини чўзган инсонларнинг орзусини амалга ошириб, яхшилик ҳеч қачон жавобсиз қолмаслиги ҳақида китобхонга сабоқ беради. Роман бирор ютуқقا эришиш учун синовларда тобланиш, мақсад сари дадил, оғишмай манзилга ета олиш борасидаги тасаввурларингизни кенгайтиради.

**Мартин аслзода қизга ёқиши учун ўқиди, Руфъ учун ҳамма нарсадан воз кечди. Оқибатда бойлик, мартаба, шон-шуҳрат,**

АЁЛ ВА ЖАМИЯТ

# ҚЎШИМЧА ДАРОМАД ТОПЯПМАН

— дейди Богот тумани «Оқтепа» маҳалласида яшовчи Гулмира Эшчанова

Богот туманида хотин-қизларни ижтимоий-хукуқий жиҳатдан қўллаб-кувватлаш, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, улар томонидан жиноят ва хукуқбузарликлар содир этилишининг барвақт олдини олишда маҳаллий ҳокимлик, хукуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда тегишли ташкилот ва муассасалар ҳамкорлигига амалга оширилиши лозим бўлган комплекс чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилган. Унга мувофик, муқаддам судланган, хукуқбузарлик содир этишга мойил бўлган, ишсиз хотин-қизлар билан «маҳаллабай», «хонадонбай», «фуқаробай» тамойиллари асосида тизимили ишлар олиб бориляпти. «Йўл харитаси» ишлаб чиқилиб, маҳаллалар кесимида ижтимоий ҳимояга муҳтоҷ аёллар, ногиронлиги бор, хукуқбузарлик содир этишга мойил бўлганларнинг аниқ манзилли рўйхатлари шакллантирилиб, ишчи гурӯхлар томонидан амалий ёрдам кўрсатилипти.

— Жорий йилнинг ўтган даврида профилактик ҳисобга олинган хотин-қизлар билан тушунтириш ишлари олиб борилиб, пробация гурӯхи ҳисобида турган 26 нафар хотин-қизга ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланиши, такроран жиноят ва хукуқбузарликка қўл урмаслиги юза-



сидан тушунтиришлар бериб борилмоқда, — дейди туман ИИБ ЖХХ ҲПБ ҲҚМБ катта инспектори, катта лейтенант Орзигул Ражабова.

**Маҳалла фаоллари, тегишли ташкилотлар вакиллари билан ҳамкорликда амалга оширилган профилактик тадбирлар натижасида ажрим ёқасидаги 21 та оиласа соғлом муҳит яратилишига эршилди. Тазийқ ва зўра-**

**вонликка учраган 28 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери берилди.**

Меҳнат ярмаркалари, «Ишга марҳамат» мономарказларида ўқув-амалий машғулотлар ўтказилиб, 21 нафар хотин-қиз ўз мутахассисликлари бўйича ишга жойлаштирилди.

— Соғлиғим туғайли ногиронлик нафақасига чиқсанман, ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланиш мақсадида туман ҳокимлигига мурожаат қилган

эдим. Масъул ходимлар оиласи шароитимни ўрганиб, субсидия асосида тикив машинаси олишимда амалий ёрдам беришди. Хозир буюртма асосида кийимлар тикиб, қўшимча даромад топяпман. Туман ҳокимлиги, Ички ишлар бўлими ходимларининг беминнат ёрдамидан жуда мамнунман, — дейди тумандаги «Оқтепа» маҳалласида яшовчи Гулмира Эшчанова.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
**ўз мухбиришимиз.**  
*Хоразм вилояти.*

КЎРИК-ТАНЛОВ

## СОҒЛОМ ОИЛА – СОҒЛОМ ЖАМИЯТ

Сурхондарё вилояти ички ишлар органлари ходимлари оиласида «Намунали оила» кўрик-танлови ўтказилди. Тизимда «Соғлом оила – соғлом жамият» гояси асосида оиласи шароити қадриятларни мустаҳкамлаш, намунали оиласарнинг ҳаётий тажрибаларини оммалаштириш мақсадида ўтказилган танловда вилоят ИИБ таркибий тузилмалари ва ҳудудий бўлинмаларидан 12 та оила қатнашди.



Кўрик-танлов шартларини бажариш давомида иштирокчи ходимлар ва уларнинг оила аъзолари ўз истеъодод ва қобилиятларини намойиш этишиди.

Қизгин ва мунозарали баҳслардан сўнг Шеробод тумани ИИБ ҲПБ ижтимоий профилактика гурӯхи катта инспектори, майор Элмурод Нормуродовнинг оиласи ғолиб деб топилиб, кўрик-танловнинг республика босқичи йўлланмасини қўлга киритди. Ангор тумани ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, майор Давлатмурод Холтўраевнинг оиласи иккинчи, Бандиҳон тумани ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, капитан Зафар Бойқобиловнинг оиласи учинчи ўринга муносиб кўрилди. Шунингдек, танловда иштирок этган оиласар турли номинациялар бўйича диплом, эсдалик совғалари ва китоблар жамланмали билан тақдирланди.

**Ўз мухбиришимиз.**



# ХОТИРANGIZNI КУЧНАЙТИРМОҚЧИМИСИЗ?

**Buning yo'li bor!**

Odatda, aksar keksalar xotirasi chatoqligidan shikoyat qilishadi. Ulardan yaqin orada yuz bergan biror voqealisa haqida so'rasangiz, «Kecha yegan ovqatim yodimda yo'g'-u», – deb miyig'ida kulishadi. Lekin bolalik xotiralarini bemalol eslashadi. Hozirgi paytda nafaqat keksalar, balki o'rta yasharlar, hatto yoshlar orasida ham xotirasi sustligidan noliyidiganlar uchrab turadi.

Myunxendagi Maks Plank nomidagi ilmiy tadqiqotlar instituti olimlari inson miysi 16–25 yosh oralig'ida eng faol bo'lishini aniqlashdi. Shundan keyin uning faolligi asta-sekin pasayib borarkan. Ammo bu miyani faollashtirib bo'lmaydi degani emas. Salbiy jarayonning oldini olish uchun miyani, xususan xotirani mashq qildirib turish kerak. E'tiboringizga mutaxassislarining bu boradagi ba'zi tavsiyalarini havola etamiz.

Xotirangizni mustahkamlash uchun har kuni quyidagi mashqlarni bajarishga odatlaning:

1. Arifmetik misollarni yeching. Ushbu misollarni hayotiy voqealar, masalan, bozor-o'char bilan bog'la-sangiz yanayam yaxshi.

2. She'r yodlang. She'rni yod olish chog'ida uni ovoz chiqarib o'qisangiz, esda qolishi osonlashadi. Qolaversa, artikulyatsiya (talaffuz) apparatingiz ham biryo'la mashq qiladi.


3. Narsa-buyumlarni so'z bilan tasvirlang. Masalan, uyingizdagi vaza, haykalcha yoki boshqa biror jumjimador buyumni avval diqqat bilan ko'zdan kechiring. So'ng teskari o'girilib, o'sha buyumni batafsil, mayda-chuyda detallarigacha tas-virlashga harakat qiling.

4. Krossvord yoki skanvord yeching. Bu kerakli so'zlarni es-



lashga yordam beradi. So'z topish bilan bog'liq boshqa mashqlar ham foydadan xoli emas.

5. Figuralarni (gugurt cho'plarini) eslab qolish. Mazkur mashqni bajarish uchun sizga 10 dona gugurt



cho'pi kerak bo'ladi. Ulardan beshtasini stol ustiga tashlang. Har qaysisi qanday holatdaligini, ularning o'zaro joylashuvini bir necha soniya davomida eslab qolishga harakat qiling. So'ng stolning boshqa chekkasida qolgan beshta gugurt



cho'pini shunday tarzda joylashtirishga urinib ko'ring.

6. Predmetlar yoki so'zlarni eslab qolish. Stol ustiga 10 ta turli buyumlarni qo'ying. Bir daqiqa mobaynida ularning nomlarini ovoz chiqarib aytинг. So'ng buyumlarining ustiga mato yopib, stol ustidagi

predmetlarning nomlarini qaytaring. Keyingi bosqichda buyumlar sonini oshiring. Xuddi shunday mashqni qog'ozga so'zlar yozib ham bajarish mumkin.

7. Xonangizda ko'zlarining yu-mib yurishiga harakat qiling. Bu ham xotirani mustahkamlab, mo'ljal olishni yaxshilaydi.

8. Kechki payt kuningiz qanday o'tganini o'zingizga hikoya qilib bering. Bunda muhim voqealarni batafsil hikoya qilishga intiling.

9. Xayoliy ekskursiya. Odatda ishga boradigan yo'lingiz bo'ylab xayolan sayohat qiling. Ushbu ja-rayonda yo'l bo'ylab joylashgan inshootlarni eslang, tasavvur qiling. Har kuni ishga borayotib ko'zingiz tushadigan manzaralarni tasavvur qiling.

10. Biror-bir xorijiy tilni o'rganing. Bunda, ayniqsa, so'z yodlash jarayoni xotirangizni mustahkamlashga yordam beradi.

Internet materiallari asosida  
**Bobomurod TOSHEV** tayyorladi.

## НАТУРАЛЬНЫЕ НАПИТКИ ДЛЯ ОЧИЩЕНИЯ ПЕЧЕНИ

**Печень выполняет важные функции в нашем организме.**

**Компоненты пищи, поступившие в желудочно-кишечный тракт, всасываются в кровь и доставляются в первую очередь в печень. В ней происходят процессы их преобразования, образуются необходимые для жизнедеятельности вещества. Она принимает участие во всех видах обмена веществ – белков, жиров, углеводов.**



Следующие натуральные напитки очень легко приготовить. Они полезны для здоровья печени и в целом способствуют хорошему самочувствию.

1. **Настой ромашки.** Чай из ромашки очищает толстую кишку и улучшает функции печени.

2. **Имбирь и лимонная вода.** Разрежьте кусочек имбиря, используйте половину лимона. Вскипятите воду и добавьте оба ингредиента, варите в течение пяти минут, а

затем дайте остыть. Если выпивать чашку этого напитка каждый вечер в течение двух недель, то это наладит работу печени и ЖКТ.

3. **Овсянка.** Замочите чашку овсянки на ночь, затем процедите и смешайте в блендере со столовой ложкой корицы и стаканом воды. Если пить эту смесь каждый вечер, то волокно овсянки улучшит все процессы вашей пищеварительной системы.

**Что следует иметь в виду, чтобы очистить печень?**

Помимо увлажнения организма и стимуляции мочеиспускания, горячие напитки (чай и натуральные настои) могут подарить вам определенное чувство

благополучия и помочь избежать употребления напитков промышленного производства. Это в некотором смысле поможет вам вывести токсины из печени и укрепить здоровье в целом.


Вышеупомянутые настои могут стать частью здорового образа жизни, но ни при каких обстоятельствах они не должны использоваться в качестве замены основного приема пищи или лечения, назначенного врачом.

Перед началом приема напитков на основе лекарственных растений (настоев и т. д.) важно проконсультироваться с врачом, особенно если вы принимаете какие-либо лекарства.



## День всемирного наследия

Ежегодно 18 апреля весь мир празднует Международный день памятников и исторических мест (День всемирного наследия). Эта дата установлена в 1983 году Ассамблеей Международного совета по вопросам охраны памятников и достопримечательных мест (ICOMOS), созданной при ЮНЕСКО.



Цель памятного дня – привлечь внимание общественности к вопросам защиты и сохранения всемирного культурного наследия.

Большое внимание охране объектов старины уделяется и в нашей стране. В 49-й статье Конституции Республики Узбекистан определено, что «граждане обязаны оберегать историческое, духовное и культурное наследие



шенствованию и развитию дела охраны и использования объектов культурного наследия» и другие нормативные документы. На основании вышенназванных правовых актов установлен порядок государственной охраны, сохранения и использования объектов культурного наследия, которых в настоящее время в нашей стране насчитывается свыше 7000.

**Фото Абу КЕНЖАЕВА.**



## MUNAJJIMLAR BASHORATI (22-apreldan 28-aprelgacha)



**Qo‘y.** Bu davrda sizni bir qancha ijobjiy o‘zgarishlar kutmoqda. Hafta boshida tashvish va yumushlar ko‘payadi, lekin hammasini osonlikcha hal qilishga erishasiz. Eski va unutilgan qarzingiz qaytarilishi, ish joyida lavozim ko‘tarilishi ehtimoli yuqori.



**Buzoq.** Dushanba va seshanba kunlari yangi yangi g‘oyalar tug‘iladi: asosiyasi, qaltis ishlarga aralashib qolishdan saqlaning. Ish joyingizda hammasi o‘z o‘rnida davom etadi. Hafta so‘ngida siz yoqtirgan kishining nogahoni tashrifi kutilmoqda.



**Egizaklar.** Ilk davrda o‘z yechimini kutayotgan uy yumushlari girdobiga «g‘arq» bo‘lasiz. Yaqinlaringiz bilan munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Hafta o‘rtalariga borib ishda ham, oilada ham hammasi iziga tushib ketadi. Ayniqsa, ish qidirayotganlarga omad kulib boqadi. Dam olish kunlari vaqtingizni xushnud o‘tkazishga harakat qiling.



**Qisqichbaqa.** Qiyin va mushkul ishlarga faqat suyanchingiz bo‘lsagina kirishing. Ayrim vazifalardan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Bu davrda berilgan qarz qo‘lingizga ancha muddat o‘tib qaytadi. Bu haftada rejalashtirilgan barcha yumushlar ko‘ngildagidek amalga oshadi. Dam olish kunlarini imkon qadar oila davrasida o‘tkazing.



**Arslon.** Dushanba va seshanba kunlari ish faoliyati samarali kechadi. Biznes yo‘nalishida foydali shartnomalar imzolash uchun yaxshi imkoniyat tug‘iladi. Haftaning ikkinchi yarmida daromadlaringizni oshirishga xizmat qiluvchi taklif olishingiz kutilmoqda.



**Parizod.** Anchadan beri qiyab kelayotgan oilaviy muammolarning yechimini topish imkoniyati tug‘iladi. Mazkur hafta har qanday safar va ko‘ngilochar tadbirlarda ishtiroy etish uchun maqbul davrdir. Haftaning ikkinchi yarmida kelgusida hayotingizni yengillatishga yordam beradigan yangi tanishlar orttirishingiz mumkin.



**Tarozi.** O‘zaro tushunmovchilik yaqinlaringiz bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kim bilandir urishish istagingizni bostiring. Vaziyatdan chiqish uchun ko‘proq sayr qiling, yashab turgan joyingizdan ancha nariga safar tashkillashtiring.



**Chayon.** Ushbu hafta har bir ishni murosa bilan bajarishga to‘g‘ri keladi. Agar do‘sit va yaqin kishilar bilan munosabatlarni qadrlasangiz, yarashish uchun birinchi bo‘lib qo‘l uzatishdan cho‘chimang. Rejadagi barcha ishlar oson va yengil hal bo‘lib, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlar mustahkamlanadi.



**O‘qotar.** Bu davrda moliyaviy ahvolni yaxshilab olish uchun qo‘srimcha ish qilish talab etiladi. Izlanish harakatlarini haftaning o‘rtalarida amalga oshirgan ma‘qul. Chorshanba kuni omad kulib boqishi mumkin. Dam olish kunlari yaxshi hordiq chiqaring, toza havoda ko‘proq sayr qiling.



**Tog‘ echkisi.** Hafta boshi omadli keladi. Ushbu davr o‘rtalarida me‘yoridan ortiq tashabbus bildirish tavsiya etilmaydi, negaki hamma ishlar shundoq ham o‘z yo‘lida ketadi. Asosiyasi, har narsaga nekbinlik ruhi bilan qarab, hayotdan zavq olishni unutmang. Dam olish kunlari yaqinlaringiz davrasida sermazmun o‘tadi.



**Qovg‘a.** Siz uchun mazkur hafta faol harakatlar davri hisoblanib, ko‘pgina muvaffaqiyatlarga erishish uchun yaxshi imkoniyatdir. Ushbu hafta davomida har qanday tashabbusning ijobji natija berishi ehtimoli yuqori.



**Baliq.** Ushbu kunlarda amalga oshirilgan sa‘y-harakatlar, ayniqsa, ishbilarmon odamlar uchun omadli kechadi. Har qanday vaziyatda ham janjal va tortishuvlardan uzoq turib, hech kim bilan nizoga bormaslikka harakat qiling.

# ЮСУФЖОН ҚИЗИҚ СЛНДИГИДИН



Юсуфжон қизиқ маҳалладагилар билан ошдан келаётган экан, олдларидан бир ит чиқиб қолибди. Устоз «Ассалому алайкум», деб итга салом бериби. Уни кўрганлар кулишиб, «Уста, итга ҳам салом берадими?», деб ҳазил қилишибди. Шунда устоз: «Отабоболаримиздан қолган бир яхши гап бор. Қизинг тушган маҳалланинг итига ҳам салом бериш керак» деган экан.

— КЕЛДИ БАХОР, ГУЛ БАХОР.  
ЭРИБ КЕТДИ ОППОҚ ҚОР!..



Юсуфжон қизиқ кўчасининг бошидаги бир тош устида ўтирган экан. Бир киши келиб, салом бериби ва «Юсуфжон аканинг эшиги қайси?», деб сўрабди. Шунда устоз чап томондаги кўк эшикни кўрсатиб: «Юсуфжон аканинг эшиги шу», дебди. У одам бориб, устоз айтган эшикни чақирибди. Юсуфжон ака ўтирган жойида «Хўй», деб жавоб бериби. У одам қайтиб келиб: «Юсуфжон ака ўзингиз экансиз-ку, менга эшигингизни кўрсатдингиз», дебди. Шунда устоз: «Сен мени сўраганинг йўқ, эшигимни сўраганинг учун кўрсатиб қўйдим-да», деб жавоб бериби.



Юсуфжон қизиқ Шакаржонов фақатгина аскиячи эмас, балки ажойиб ташкилотчи, цирк артисти, етакчи халқ режиссёри, барча созларни маромида чала оладиган созанда, доира билан лапар ва яллалар ижро этадиган, қолаверса, катта ашула айтадиган ва халқ орасида «уста» деб ном олган. У порахўр, адолатсиз, текинхўр, судхўр кишилар устидан аёвсиз куларди. Шогирдлариға ҳам кулги меъёрида, мазмунли, ҳозиржавоб бўлиши кераклиги ҳақида уқтиради.

Юсуфжон қизиқ Шакаржоновнинг ўзи билан боғлиқ қўйидаги ҳангомалар ҳалигача эл орасида оғиздан-оғизга ўтиб, байрам ва тадбирларда айтиб юрилади.



— Йўл чала бўлса ҳам  
мен бутунман, онаси!

Бир сўзи ўткир бой Юсуфжон акани тўйига чақирибди. Юсуфжон ака ўз юмушлари билан овора бўлиб, тўйига боришни унтиби. Шунда дарғазаб бўлган бой ўзининг гумаштларига: «Юсуфжон қизиқни эшакка тескари миндириб олиб келинглар», деб буюрибди. Улар Юсуфжон акани эшакка тескари миндириб, тўйига олиб келишибди. Шахтидан тушмаган бой Юсуфжон қизиқнинг аҳволини кўриш учун эшик олдида кутиб ўтирибди. Эшакда тескари ўтирган Юсуфжон акани кўриб, гўё аҳволига ачинган бўлиб: «Хой, нодонлар, шундай улуф одамни ҳам эшакка тескари миндириб олиб келасанларми?», деб гумашталари га танбех бериби. Шунда Юсуфжон қизиқ бойга қараб: «Бой ота, мен хеч хафа бўлганим йўқ, холангизни жўнатган экансиз, юзларига қарашга уялиб, тескари миниб келдим», деган. Юсуфжон аканинг бу жавобидан бой хоҳолаб кулиб, унинг сўзамоллигига тан берган экан.

Юсуфжон қизиқ шогирдлариға насиҳат қилиб: «Инсон ўз касбида манманликка берилса, катта хато қиласи. Бу гап биз, аскиячиларга ҳам тааллуқли. Чунки халқнинг орасида шундай сўзамол одамлар борки, бир оғиз гап билан бизни мот қилиб қўйиши мумкин», дер экан.

Бир куни устоз маҳаллада шогирдлари билан ўтиришганда бир дехкон эшак аравада фўзапоя олиб, бозорга кетаётган экан. Устоз ҳазил қилиби: «Ота, фўзапоя неча пул?»

Отахон «Бир танга», деб жавоб бериби. Устоз: «Жуда қиммат-ку, эшагини ҳам қўшиб берасизми?», дебди. Шунда отахон: «Йўқ, эшаксиз, уста», деб жавоб берган экан. Юсуфжон қизиқ шогирдлариға қараб: «Кўрдиларингми, мени бир сўз билан мот қилиб кетди. Шунинг учун оддий одамлар билан ҳам ўйлаброқ гаплашиш керак», деган экан.

Ўз мухбиришимиз Абдувосит СИДИКОВ тайёрлади.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarları –  
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV

Navbatchi –  
Sarvar SOBIROV

Sahifalovchilar –  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

## TELEFONLAR:

71-231-33-88;  
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:  
71-231-38-74;  
97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)  
E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>а</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №1226.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50370 nuxsada chop etildi.

Obuna raqamlari:  
Yakka taribda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxa.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)